



O'zbekiston Respublikasi  
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

# Postda Ha nocty

2024-yil  
22-avgust  
payshanba

№ 34 (4676)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan

Web-site: [www.postda.uz](http://www.postda.uz)

E-mail: [info@postda.uz](mailto:info@postda.uz)



## M ATONATLI, AHORATLI ALIKALAR

«To'maris izdoshlari» ko'rik-tanlovining bu yilgi respublika bosqichi 13–17-avgust kunlari Buxoro shahrida bo'lib o'tdi.

18 ta jamoa tarkibida 230 nafardan ortiq ichki ishlar organlari ayol xodimalari tanlovning tanishtiruv, amaliy o'q otish mashqlari, turli masofalarga yugurish, shartli yaradorlarni jang maydonidan olib chiqish va erkin uslubda 50 metr masofaga suzish shartlarida nechog'lik mahoratli, epchil va tezkor ekanliklarini namoyish qilishdi.





«NURLI MASKAN» FIDOYISI

## DOIMO BO'LGUM DESANG SOG'-U OMON...

«Xalq ta'limi a'lochisi», «Do'stlik» ordeni sohibi **Umida Abdullayeva ilk faoliyatini salkam yigirma yil muqaddam Toshkent shahar Xalq ta'limi bosh boshqarmasi tasarrufidagi 77-sonli ixtisoslashtirilgan ko'zi ojizlar maktab-internatida psixolog-mutaxassis sifatida boshlagan.**

Yoshligidan mehribon, atrofidagilarga yordam berishni o'zining insoniylik burchi deb biluvchi Umidani ixtisoslashtirilgan maktabda ishlash mas'uliyati faqat g'ayratlantirar, ilimga tashna bolalar bilan ko'proq muloqot qilish, iste'dodini ro'yobga chiqarish, orzu-intilishlariga qanot bag'ishlashga undardi. Bunda unga ustoz Zulayho Hasanova hamda shu maskanda tarix fanidan saboq beradigan turmush o'rtog'i Ravshanbek Norqulov yaqindan yordam berdi.

bo'lib ishlashni taklif qildi. Oradan bir necha yil o'tib, ona tili va adabiyot fani uslub birlashmasining raisi etib tayinlandim.

– Har bir darsga puxta tayyorgarlik ko'rib, mashg'ulotlarni innovatsion metodlar asosida o'quvchilar uchun qiziqarli tarzda o'tishga harakat qilaman, – deydi lavhamiz qahramoni. – 2016-yilda pedagogik faoliyatim ilg'or tajriba sifatida e'tirof etilib, Respublika ta'lim markazi uslubchilariga mamlakat miqyosida ommalashtirish

bellashuvning keyingi bosqichini ham yaxshi natija bilan yakunladi.

Uning o'quvchilari ham o'zi kabi shashti baland, ilmsevar, tirishqoq o'g'il-qizlardir. Ular muntazam ravishda fan olimpiadalarida qatnashib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritmoqda. O'tgan o'quv yilida shogirdlaridan Farida Ravshanova umumta'lim fanlari olimpiadasining respublika bosqichida ona tili va adabiyoti fanidan birinchi, Zuhra Avazova esa uchinchi o'ringa sazovor bo'lgani fikrimizni tasdiqlaydi.

– Yozgi ta'til kunlari ham o'quvchilarim bilan doimo telegram ijtimoiy tarmog'i orqali aloqada bo'lishga harakat qildim, – deydi muallima. –

Har hafta yangi asarlardan namunalar jo'natib turdim. Ular asar haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi. O'ylaymanki, yangi o'quv yilida adabiyot darsida o'tilishi rejalashtirilgan asarlarni o'zlashtirishlari ancha oson bo'ladi. Bundan tashqari, o'quv yilining 1-choragida «Yosh kitobxon» tanlovini o'tkazishni rejalashtirganman.

Yosh avlodga bilim va tarbiya berishni, ularning ma'nan yuksalishiga hissa qo'shishni oliy saodat deb bilib, hayotining mazmuniga aylantirgan U. Abdullayeva o'zi mehr qo'yan sohada zavq bilan ishlaydi. Ulug' mutafakkir Fariddin Attorning:

«Doimo bo'lgum desang sog'-u omon, yaxshilik ko'rsin sendan butun jahon», degan misralari go'yo u kabi ilm fidoyilariga atab yozilgandek.

**Adolat FAYZIYEVA,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

MUSTAQILLIK  
TENGDOSHI

## G'URURIM MANBAYI



**Istiqlol – hayotimdagi eng qadri va yoqimli so'z! Negaki, ona Vatanimiz istiqloлга erishgan yili dunyoga kelganman. Tarixiy sanada tug'ilganim uchunmi, siyosiy jara-yonlarga befarq emasman. Har bir o'zgarishni kuzatib, tahlil etaman. Bu qiziqishlarim yanada faol va tashabbuskor bo'lishga undaydi.**

2011-yili Yangiqo'rg'ondagi 10-umumta'lim maktabini tamomlab, O'zbekiston Jahon tillari universitetida tahsil oldim. 2016-yili IIV Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasida xizmat qilishni boshladim. Ayni paytda Chortoq tumani IIB boshlig'ining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari lavozimida faoliyat yuritib kelmoqdaman.

Sportga, til o'rganishga qiziqaman. Ichki ishlar vazirligi tomonidan o'tkazilgan imtihonlarda ishtirok etib, ingliz tilidan V2 sertifikatiga ega bo'ldim.

Shuni yaxshi bilamanki, orzularim, hayotda topganlarim va erishganlarimning sababchisi, g'ururlarim manbayi – Istiqloldir. Ha, o'sha men tengdosh bo'lgan ISTIQLOL!

**Elyor ABDULLAYEV,**  
kapitan.

Namangan viloyati.



– Maktab-internatga yangi kelgan kezarim, – deb xotirlaydi qahramonimiz. – Bir kuni muassasamiz rahbari ish daftarimni ko'zdan kechirayotib, husnixatimga e'tibor berdi. Keyin maktab pedagogik kengashida kotiba

tavsiya etildi. Pedagog uchun bu yuksak sharaf va rag'bat, albatta.

«Ustoz – 2020» milliy mukofoti tanlovida «Mehridaryo ustoz» nominatsiyasi uchun tayyorlagan ish faoliyatiga doir videoroligi yuqori baholanib,

FIDOYI XODIMLAR

## TEZKOR HARAKAT MUHIM, – deydi katta serjant Asqar Xo'jayev

**Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi xodimi, katta serjant Asqar Xo'jayevning sohada faoliyat boshlaganiga 18 yil bo'ldi.**

Qahramonimiz 2006-yilda Samarqand avtomobil yo'llari kollejni tamomlab, xizmatga kirgan. Ayni paytda viloyat TXTB PPX guruhi komandiri.

Uning ish kuni yo'riqnomaga o'tkazishdan boshlanadi. Navbatchilikka kirishishdan oldin qo'l ostidagilar yangi ko'rsatmalar olishadi.

– Ko'pincha mehmonlar poyezdda yoki vokzalda o'z narsalarini va sumkalarini unutib qoldirish-

adi, – deydi katta serjant.

– Keyin yordam so'rab, bizga murojaat qilishadi. Masalan, yaqinda yo'lovchilardan biri o'z sumkasini vokzal hududida qarovsiz qoldirib, «Afrosiyob» tezyurar poyezdida Toshkentga jo'nab ketgan. Sumkada besh ming AQSH dollari va 3 million so'mdan ziyod mablag' bo'lgan. Sumka cho'ntaklaridan biriga tilla buyumlar solib qo'yilgan. Ayol mushkul ahvolga tushib qolgan edi, lekin biz uning qaytishida sumkasini o'ziga qaytardik. Bunday misollar vokzalda tez-tez uchuratadi. Har oyda yo'qolgan



narsalar bilan bog'liq kamida uchta holat qayd etiladi.

Komandirning fikricha, transportda tartib va xavf-

sizlikni ta'minlash uchun har bir xodim yuqori kasbiy mahoratga ega bo'lishi, na-faqat o'z mutaxassisligining

o'ziga xos jihatlarini, balki transport xizmatlari qanday ishlashini bilishi, doimiy o'zgaruvchan muhitda tezkor harakatga kirisha olishi kerak.

A.Xo'jayev uch farzand – bir qiz va ikki o'g'ilning otasi. To'ng'ich o'g'li Asilbek endi 11 yoshda, lekin hozirdan ichki ishlar organlarida xizmat qilishni orzu qiladi. Mas'uliyatli xizmatini to'kis ado etishga odatlangan otasi unga har jihatdan munosib ustoz bo'lishiga shubhamiz yo'q.

**Zamira BOLTAYEVA,**  
o'z muxbirimiz.  
Samarqand viloyati.





# MATONATLI, MAHORATLI MALIKALAR

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Uch kun davom etgan ko'rik-tanlov yakunlanib, g'oliblar aniqlandi.

– Shartli yaradorni jang maydonidan olib chiqish jarayonida mahorat-u jasorat kerak bo'ladi, – deydi katta leytenant Oysuluv Abdumajidova. – Shartli yaradorimiz vazn jihatdan og'ir bo'lsa-da, sport bilan shug'ullanganim qo'l keldi. Uni 52 sekundda jang maydonidan olib chiqib, faxrli birinchi o'rinni egallab, jamoadoshlarim ishonchini oqlaganimdan juda xursandman. Buning uchun murabbiyim Durdona opaga katta rahmat.

Qisqasi, xodimalarda yuksak jangovar tayyorgarlikni oshirish, yetakchilik xususiyatlarini rivojlantirish, jamoalarda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishdek o'ziga xos jihatlarni maqsad qilgan bellashuv qizg'in va murosasiz kechdi.

Tanlov g'oliblariga diplom, kubok va esdalik sovg'alari topshirildi.

**Mirzoqul AHADOV,**  
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



## G'OLIBLAR:

### UMUMJAMOA HISOBIDA

- 1-o'rin – Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV jamoasi;
- 2-o'rin – Qashqadaryo viloyati IIB jamoasi;
- 3-o'rin – Buxoro viloyati IIB hamda IIV huzuridagi JIED jamoasi.

### TANISHTIRUV

- 1-o'rin – Qashqadaryo viloyati IIB jamoasi;
- 2-o'rin – Toshkent shahar IIBB hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV jamoalari;
- 3-o'rin – Navoiy viloyati IIB jamoasi.

### SHARTLI YARADORNI JANG MAYDONIDAN OLIB CHIQISH

- 1-o'rin – katta leytenant **Oysuluv Abdumajidova** (Andijon viloyati IIB);
- 2-o'rin – katta leytenant **Maftuna Najmidinova** (Andijon viloyati IIB);
- 3-o'rin – safdor **O'g'iloy Jumanova** (Qashqadaryo viloyati IIB).

### BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO'RSATISH

- 1-o'rin – katta leytenant **Hulkar Muhamadiyeva** (Samarqand viloyati IIB);
- 2-o'rin – mayor **Dilabza Sevinova** (Qashqadaryo viloyati IIB);
- 3-o'rin – safdor **Zarnigor Murodova** (Buxoro viloyati IIB).

### AK-74 AVTOMATIDAN O'Q OTISH

- 1-o'rin – kichik serjant **Muharram Bahronova** (Buxoro viloyati IIB);
- 2-o'rin – leytenant **Iroda Toshmurodova** (Qashqadaryo viloyati IIB);
- 3-o'rin – leytenant **Donoxon Olimova** (Buxoro viloyati IIB).

### MAKAROV PISTOLETIDAN AMALIY O'Q OTISH

- 1-o'rin – katta leytenant **Aybibi Ahmedova** (Surxondaryo viloyati IIB);
- 2-o'rin – mayor **Sojida Jumanova** (Jizzax viloyati IIB);
- 3-o'rin – katta serjant **Zarina Saydaliyeva** (IIV huzuridagi JIED).

### ESTAFETALI YUGURISH

- 1-o'rin – Andijon viloyati IIB jamoasi;
- 2-o'rin – IIV Akademiyasi jamoasi;
- 3-o'rin – Buxoro viloyati IIB jamoasi.

### 50 METRGA SUZISH

- 1-o'rin – safdor **Sabina Ramazonova** (IIV Akademiyasi);
- 2-o'rin – podpolkovnik **Saida Abduhamidova** (Sirdaryo viloyati IIB);
- 3-o'rin – podpolkovnik **Mariya Rahimova** (IIV huzuridagi JIED).



## Бухарская область



# ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ПОРУЧЕННОЕ ДЕЛО

**Махалля Беруний, где несет службу инспектор профилактики ОПП СОБ ОВД города Кагана старший лейтенант Бобуржон Мардонов, многонациональная. Среди более 3200 ее жителей есть узбеки, каракалпаки, русские, казахи, туркмены, корейцы, представители других национальностей.**

Б. Мардонов стремится завоевать доверие людей ответственностью, честностью, вникает в проблемы, волнующие махаллинцев, оказывает поддержку в их решении.

Нет такой сферы, где можно было обойтись без участия инспектора профилактики. Озеленение, благоустройство территории, развитие предпринимательства, защита интересов потребителей, посещаемость в школах, организация досуга молодежи, работа с обращениями граждан... Всего не перечислить. Эти вопросы напрямую влияют на криминогенную ситуацию, обеспечение спокойствия.

– В нашем деле целесообразно предупредить со-

вершение правонарушения, чем устранять последствия. Поэтому в тесном сотрудничестве с активом махалли проводим профилактические мероприятия, беседы, привлекаем к этому представителей старшего поколения, – говорит старший лейтенант Б. Мардонов.

Для инспектора профилактики все равны перед законом. Порой нарушители общественного спокойствия в защитники приглашают родственников, знакомых. Но инспектор непоколебим и принципиален. За минувший период года выявлено более двадцати административных правонарушений, приняты необходимые меры. 78 лиц взяты на профилактический учет, с ними ведется индивидуальная

работа. За этот период не допущено совершения ни одного преступления, махалля включена в категорию «зеленых».

– Более трех лет работаем в тесном контакте с Бобуржоном Мардоновым, – говорит председатель махалли Раъно Файзиева. – Он открыт для граждан, умеет находить подход к каждому. Поэтому к нему обращаются за советом, видят в нем защитника.

Большую помощь герою очерка оказывают наставник майор Бегзод Хакимов и дядя – подполковник в отставке Давлат Дустмуродов.

**Мирзокул АХАДОВ,**  
соб. корр.

## Служба пробации

# ПОМОЧЬ НАЙТИ СЕБЯ

**Человек совершил неверный шаг. Но, понеся заслуженное наказание, важно сделать правильные выводы и вернуться к нормальной жизни. Под надзором службы пробации Мирзаабадского РОВД состоят более двадцати молодых людей. Недавно руководители секторов провели с ними встречу.**

На ней были затронуты актуальные для условно осужденных лиц вопросы, в том числе необходимость следования предписаниям, выполнения возложенных обязанностей, способствующих исправлению. Речь также шла о мерах государственной поддержки желающим открыть свое дело, будь то предпринимательство или занятие ремеслами. Здесь же трем молодым людям за счет субсидий были выданы инструменты и оборудование.

Житель махалли Улугобод города Гулистана Неъматжон Хакимов (фамилия и имя изменены) был осужден к трем годам ограничения свободы за мошенничество. Двадцатичетырехлетний парень толком нигде не работал. Группа пробации Гулистанского городского отдела внутренних дел всерьез взялась за перевоспитание подопечного. Необходимо было решить вопрос с его

трудоустройством, иначе он опять может взяться за старое. Парня определили на курсы автоэлектриков моноцентра «Ишга мархамат». За три месяца он освоил основы



профессии. Неъматжона устроили в одну из автомастерских Гулистана. Через год с небольшим парень уже слыл мастером своего дела. На заработанные средства отре-



монтировал дом, купил поддержанную «Нексию», планирует жениться.

Последовательную работу группа пробации Сырдарьинского районного отдела внутренних дел ведет с 18 молодыми жителями, состоящими на учете. Для них был организован тур на совместное предприятие «Pengshen». Трое выразили желание трудоустроиться, что и было оформлено на месте. В центре занятости и сокращения бедности пятеро поднадзорных были

записаны на курсы переподготовки. Им предстоит освоить профессии электрослесаря, сварщика, мастера по ремонту автомобилей.

– Возвращение поднадзорных к нормальной жизни процесс непростой, – говорит старший инспектор группы пробации Сырдарьинского РОВД подполковник Шахло Норкузиева. – Они часто затрудняются при принятии того или иного решения. В такие минуты важно дать верный совет, поддержать.

**Абдурахмон МУСТАФОКУЛОВ,**  
соб. корр.  
Сырдарьинская область.





XIZMATLARDA

## HUJJATGA E'TIBORLI BO'LAYLIK

**Biz biron-bir joyga murojaat qilsak yoki yashash joyimizdan boshqa hududga chiqsak albatta fuqarolik pasporti so'raladi. Chunki, u fuqaroning kim ekanligi va qayerda yashashini tasdiqlash bilan birga uning haq-huquqlari ta'minlanishiga xizmat qiladi. Shuning o'zi fuqarolik pasportining har birimiz uchun naqadar muhim hujjat ekanligini anglatadi.**

Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasi tomonidan joriy yilda fuqarolarning eski namunadagi biometrik pasportlarini yangi turdagi identifikatsiya ID-kartalarga almashtirish bo'yicha ishlar davomida 150 mingdan ortiq fuqarolarga mazkur kartalar rasmiylashtirilgan.

– Afsuski, oramizda xorijga chiqish davomida ushbu hujjatga beparvoqlik bilan munosabatda bo'ladigan fuqarolar ham uchrab turadi. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, shu yilning o'tgan davri mobaynida xorijda yurgan paytlari fuqarolik pasportini yo'qotgani, amal qilish muddati o'tganligi yoki yaroqsiz holga kelib qolganligi tufayli jami 715 nafar fuqaro vatanga qaytish guvohnomasi

tegishli idoralar tomonidan suhbatdan o'tkazildi.

Jismoniy imkoniyati cheklangani yoki boshqa sabablar tufayli tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish uchun bo'limlarimizga kela olmagan

amaliy yordam ko'rsatildi. Ayniqsa, markazdan uzoqda yashovchi aholi va yoshi katta avlod vakillari yoki jismoniy imkoniyati cheklangan kishilar bunday qulaylik uchun minnatdor bo'lib kelmoqda, – deydi boshqarma boshlig'i mayor Shavkat Turayev.

Shu bilan birga, hududda muntazam ravishda «Spitamen» tadbiri o'tkazilib, unda mehmonxonalar, xostellar, uy mehmonxonalari hamda chet el korxonalarini va qo'shma korxonalarda o'rganish ishlari yo'lga qo'yilgan. Buning natijasida 168 nafar mamlakatimizda bo'lish qoidalarini buzgan shaxslar aniqlangan. Shulardan 110 nafari MDH va chet davlatlar fuqarolari, 58 nafari hududlardagi xonadon egalarini tashkil etib, ulardan jami 293 mln 222 ming so'm miqdorida jarima undirilgan. Boshqarma tomonidan murojaatlar bilan ishlashga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.



bilan qaytib kelgan. O'z navbatida ularning to'liq ro'yxati shakllantirilib,

343 nafar fuqaroga maxsus mobil qurilma yordamida joyiga borib

**Azamat PIRNIYAZOV,**  
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

KO'RIK-TANLOV

## ZUKKO «OROL YULDUZLARI»

Ko'rik-tanlovning birinchi sharti bo'yicha jamoalar yumorga boy chiqishlari orqali o'zlarini tanishtirishdi. Har bir jamoa o'ziga xos usulda ishtirokchilar qalbini zabt etishga harakat qildi. Olqishlar esa ijodkor yoshlarga haqiqiy rag'bat tuhfa etdi.

Ikkinchi shart barchaga ma'lum improvizatsiya sharti bo'lib, hakamlarning anonim savollarini jamoalar pozitiv javoblar orqali davom ettirishi kerak edi. Mazkur shart ham ko'tarinki kayfiyatda yakunlandi. Orada Navoiy viloyati IIB TVBSO xodimlarining chiqishlari hamda xonandalarning sho'x navolari tadbirga yanada ko'tarinkilik bag'ishladi.

Nihoyat navbat tanlovning hal qiluvchi erkin mavzu shartiga ham yetib keldi. Bunda jamoalar puxta tayyorgarlikka ega ekanliklarini namoyon etib, davrning dolzarb

**Kuni kecha Navoiy shahridagi muhtasham Farhod madaniyat saroyida «Quvnoqlar va zukkolar» ko'rik-tanlovining beshinchi mintaqaviy bosqichi bo'lib o'tdi. Sahnaga birin-ketin Qoraqalpog'iston Respublikasi IIVning «Orol yulduzlari», Xorazm viloyati IIBning «Yangi yulduzlar» hamda Navoiy viloyati IIBning «Matonat» jamoalari taklif etildi.**

muammolarini tomoshabinlarga kulgular, hazil-mutoyiba yo'sinida yetkazishdi.

Tanlovning yakuniy bosqichiga yo'llanmani Qoraqalpog'iston Respublikasi IIVning «Orol yulduzlari» jamoasi qo'lga kiritdi.

G'olib va sovrindorlar diplom hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.

**Mahliyo XOLOVA,**  
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.





Молодежь — наше будущее

## ВСТРЕЧА ПОКОЛЕНИЙ



Учебный год в Академии МВД Узбекистана стартовал традиционно раньше, чем в гражданских вузах. Для первокурсников он начался с насыщенных сборов на базе учебно-полевого центра МВД.

Под руководством строевых офицеров новобранцы закаляют не только тело, но и дух, адаптируясь к новому коллективу, строгой дисциплине. Параллельно с физической подготовкой они погружаются в мир юридических дисциплин, осваивая основы будущей профессии. Особое внимание уделяется

воспитательной работе, укреплению у юношей и девушек высоких моральных качеств.

Недавно с первокурсниками встретились ветераны ОВД. В своих выступлениях полковники в отставке Аваз Азизходжаев, Уткир Ахмедов и др. подчеркнули, что служба в органах внутренних дел — это не просто профессия, а призвание. Ветераны поделились богатым опытом, рассказали о значимых событиях в своей службе, пожелали курсантам успехов в учебе.

**Радик ТУМΠΑРОВ,**  
соб. корр.

ДЖИЗАКСКАЯ ОБЛАСТЬ

## ОТВЕСТИ ОТ НЕВЕРНОГО ШАГА

Административный надзор представляет собой комплекс мер воспитательно-профилактического воздействия, состоящий из применения административных ограничений, назначенных судом.

Он устанавливается в целях предупреждения повторных преступлений в отношении особо опасных рецидивистов, а также за совершение тяжких и особо тяжких преступлений, за преднамеренные преступления, в том числе лиц, лишенных свободы дважды или более раз.

Работа в этом направлении в настоящее время осуществляется в усиленном порядке на основе специального профилактического мероприятия «Назорат», проводимого в рамках месячника «Безопасная территория».

В частности, сотрудники ОПП СОБ Джизакского областного УВД сов-



местно с коллегами из уголовного розыска, службы пробации, безопасности дорожного движения, следственных подразделений посещают дома 378 лиц, взятых под надзор, знакомятся с условиями их быта. В результате 11 поднадзорным оказана материальная помощь, еще 10 — трудоустроены.

Кроме того, на системной основе организуются мероприятия, в ходе которых оказывается юридическая и психологическая поддержка.

**Шохрух АНВАРОВ,**  
майор.

### Я ЛЮБЛЮ УЗБЕКИСТАН

Много в мире разных стран  
Красотой к себе манит  
Я люблю Узбекистан!  
Здесь радушие царит!

Городов и площадей  
Сохранив прекрасный лик  
Как красавец-богатырь  
Величаво он стоит!

Здесь фонтаны до небес  
Жемчугом струятся  
Их волшебной красотой  
Не налюбоваться!

Здесь для сердца наслажденье  
Здесь души прикосновенье  
К той великой красоте  
Что родилась на земле!

А какие повара!  
На все руки мастера!  
Вы прелестны и искусны!  
Ваши блюда очень вкусны!

Плов и манты — высший класс!  
Приглашайте в гости нас!  
Мы не сможем отказаться,  
Чтобы в сказке оказаться

И почувствовать сполна  
Что под солнцем есть страна  
Рай земной хранит она!  
Здесь красот волшебных стан!  
Имя ей — УЗБЕКИСТАН!

**Аля СМЕРНОВА.**





▶ ТҲЙХАТ ҲРНИДА

## ЯХШИЛИККА ИНТИЛИБ

**Инсон мудом яхшиликка интилиб яшайди, яхши ном қолдиришга ҳаракат қилади. Маънавиятини бойитиш ва илм ўрганиш йўлида доимо изланади. Бутун умри давомида ҳаёт мактабида ўқиган, тинчлик ва осойишталик учун шижоат билан хизмат қилган ана шундай инсонлардан бири истеъфодаги полковник Олимжон Жалиловдир.**

Одатда йиллар давомида умри ва меҳнатини ўзи севган соҳа ривожини учун бахшида этган кўплаб инсонлар ҳақида гап кетганда, уларга «фидойи» дея таъриф берилади. Албатта, бу уларнинг том маънода соҳага садоқати ва унинг ривожига қўшган ҳиссаси билан ўлчанади.

Милиция мактабидаги таҳсилни тугатгач, Тошкент вилояти ИИБ ЖҚБ тезкор вакили лавозимига тайинланган ёш ходим билмаганларини устозларидан кунт билан ўрганиб, хизматга тезда киришиб кета олди. Ўз устида тинимсиз изланиш самара бериб, Бектемир ва Ўрта Чирчиқ туманлари, Олмалиқ шаҳар ИИБ бошлиғи, кейинчалик ИИБ ЖҚБ бошлиғининг биринчи ўринбосари, Тошкент вилояти ИИБ бошлиғининг биринчи ўринбосари, пойтахт вилояти ИИБ бошлиғи лавозимларида жиноятчиликка қарши курашиш, жиноятларни «иссиқ изида» фош этишда фидойилик кўрсатди. Пенсияга қадар эса Тошкент олий ҳарбий техника билим юрти (ҳозирги Жамоат хавфсизлиги университети) бошлиғининг шахсий таркиб

бўйича ўринбосари лавозимида ишлади.

Шогирдлари – полковниклар Қаҳрамон Ражабов, Абдукарим Юлбарисов, Эргаш Эрқаевларга тўғри ўғит ва насиҳатлар беришни, яқдилликда осойишталикни таъминлашни ўзининг асосий вазифаси деб билган Олимжон Жалиловнинг юрт осойишталиги йўлида амалга оширган хайрли ишларини фарзандлари давом эттирди. У умр йўлдоши Гулнора ая билан икки ўғил, икки қизни жамиятга нафи тегадиган, етук кадр қилиб вояга етказди. Камола ва Диёра тиббиёт ходими, ўғли Акмал Жалилов судья, Азиз Жалилов эса кўп йиллар ички ишлар органларида самарали хизмат қилиб, подполковник унвонида пенсияга чиқди.

Дарвоқе, истеъфодаги полковник Олимжон Жалиловнинг укаси Ҳамиджон Жалилов жамиятда адолатни қарор топтириш йўлида судья, яна бир укаси Акбар Жалилов кўп йиллар давомида ИИБ Транспортдаги ИИБ бошлиғининг



ўринбосари – Шахсий таркиб билан ишлаш хизмати бошлиғи лавозимида ишлаб, полковник унвонида пенсияга чиққан.

– Болалигимдан ички ишлар органлари ходими бўлишни ҳавас қилиб улғайдим, – дейди истеъфодаги полковник Олимжон Жалилов. – Отам Холмат Жалилов прокуратура органларида ишлаганлиги боис уйимизда ўзгача тартиб-интизом ҳукмрон эди. Бизга масъулият ҳар қандай муваффақиятлар калити эканлигини ўқитарди.

Улғайганим сайин Шайх Саъдийнинг «Эй умри азиз инсон, сен қанчалик ҳаёт зийнатисан...

Ақллилар улуғланади, шундайлар қаторида сен ҳам борсан, таҳдид ва зулм барчаси ўтиб кетади... сийласанг ўтганлар азиз номини, сенинг номингга ҳам ҳурмат етади», деган ўғитлари нақадар ҳақиқат эканлигига амин бўлиб бормоқдаман.

Ғамхўр ва фидойи устоз Олимжон Жалилов хизмати давомида меҳнатсевар, ташаббускор, қўл остидаги шахсий таркибни ҳар қандай ҳолатда ҳам сафарбар қила оладиган, улар устидан етарли назоратни ўрната олган, ёш ходимларнинг билими ва ўз касбининг етук мутахассиси бўлиб етишишида бор куч-ғайрати ва тажрибасини аямайдиган мураббий ҳамда юклатилган вазифалар масъулиятини ҳис этувчи раҳбар сифатида ўзини кўрсатиб келган.

Табаррук 70 ёшни қарши олаётган лавҳамиз қаҳрамони умрининг чорак асридан зиёдини эл-юрт тинчлиги ва осойишталигига бахшида қилди. Оддий тезкор ходимликдан раҳбарлик даражасигача кўтарилиб, талабчан ва ғамхўр устоз мақомига эришган, шогирдлар эҳтиромида пенсияга чиққан соҳа фидойиси, истеъфодаги полковник Олимжон Жалилов намунали оила бошлиғи, меҳрибон ота сифатида ҳам мазмунли ҳаёт йўлини босиб ўтмоқда.

**Азизжон ФАЙЗИЕВ,**  
подполковник.

▶ MUSTAQILLIK MENING TAQDIRIMDA



## НАМКАСБЛАРДАН ИЛНОМ ОЛДИМ

**Men 2017-yil Xorazm viloyati IIB JXX JTSB PPX batalyonida xizmat faoliyatimni boshlaganman. Profilaktik tadbirlar, o'quv va jangovar taktik mashg'ulotlar, sport musobaqalari kishidan sabr, matonat va katta mehnatni talab qiladi.**

Аynи кунда вилоят ИИБ Тезкор вазифаларни bajaruvchi safarbar otryadida xizmat olib boryapman.

2017-yil Namangan shahrida, 2018-yil Nukus shahrida, 2020-yil Navoiy viloyatida, 2022-yil Urganch shahrida, 2023-yil Navoiy viloyatida professional sportchilar o'rtasida bo'lib o'tgan Qo'l jangi musobaqalarining respublika bahsida

championlikni qo'lga kiritishim, sport ustasi talabini bajarishimda murabbiy va ustozlarimning xizmatlari juda katta bo'ldi.

Kuni kecha yakuniga yetgan Parij olimpiadasida hamkasblarimizning olimpiada sovrindorlari bo'lishgani meni ham sport yo'nalishida orzularimni ulkan qilishimga katta turtki berdi. Maqsadim – el-yurtga sadoqat bilan xizmat qilish barobarida olimpiya va jahon arenalarida shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy olish hamda O'zbekiston bayrog'ini yanada baland ko'tarish. Fursatdan foydalanib, barcha yurtdoshlarimizni, hamkasblarimizni Mustaqillik ayyomi bilan tabriklayman!

**Quvondiq YUSUPOV,**  
serjant.

Xorazm viloyati.



# QO'SHSAHIYADA

## QO'SHQANOTLAR

### «BIR OLMANING IKKI YUZI»

**Bir kasb egalarining kecha-yu kunduz yonma-yon bo'lishi qiyin, deyishadi. Ammo Andijon viloyati IIB xodimlari Sarvinoz va Nurbek bunday fikrda emas. Ular bu tushunchani osongina sindirib, umumiy ish haqiqiy oilaviy baxt kafolati ekanini isbotlashdi.**

Yosh oilani muhabbat, do'stlik va xizmat bog'lab turadi. Ularni xizmat joyida ham, sport tadbirlarida ham birga uchratish mumkin.

Sarvinoz Abdumutalibova va Nurbek Alibekovlar kasbga turli yo'llardan kelgan. Ammo bu tanlov har biri uchun muhim qadam bo'ldi.

Sarvinoz Abdumutalibova IIV Andijon akademik litseyi bitiruvchisi. O'tgan yili Andijon viloyati IIB Tashkiliy boshqarmasining «102» xizmatiga kichik mutaxassis lavozimiga ishga qabul qilindi. Hozirda u Andijon davlat pedagogika institutining sirtqi bo'limi talabasi.

Nurbek Alibekov ichki ishlar organlaridagi xizmatini tergov hibxonasida nazoratchi lavozimida boshlagan. O'tgan yili Andijon viloyati IIB JXX JTSB PPX batalyoni ikkinchi otryadiga xizmat inspektori etib tayinlandi. Nurbek Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti sirtqi bo'limining 3-bosqich talabasi.

Yoshlar joriy yilning iyun oyida turmush qurishdi va ichki ishlar organlari xodimlaridan iborat yangi oila paydo bo'ldi.

«Er-xotinning ikkisi ham ichki ishlar organlari xodimi bo'lsa, oilada vazifalar qanday taqsimlanadi?» degan savolimizga Sarvinoz shunday javob berdi:

– Bu savolni ko'p berishadi. Uyda oila boshlig'i erkak bo'lishi kerak, deb hisoblayman. Muhim qarorlarni birgalikda qabul qilamiz, lekin Nurbek aka to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Bir sohada ishlayotganimiz esa, aksincha, bizga juda qo'l keladi. Turmush o'rtog'im ishda kech

qolishim mumkinligini tushunadi va shu bois hech qachon e'tiroz bildirmaydi.

Shubhasiz, ichki ishlar organlari xodimlari oilasi mustahkam bo'ladi. Axir, ishdagi kechikishlar, xizmat safarlari, navbatchilik, «tashvish» signali bo'yicha turish va xizmatning boshqa qiyinchiliklarini faqat hamkasbgina yaxshi anglashi va tushunishi mumkin. Shuning uchun bir sohada ishlash oilani yanada mustahkamlaydi va barcha ehtimoliy tushunmovchiliklarni yo'q qiladi.



## KINOLOGIYA XIZMATI

### TENGI YO'Q YORDAMCHILAR

**So'nggi paytlarda maxsus texnikalar rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda havodagi molekular bo'yicha portlovchi modda mavjudligini aniqlaydigan sensorlar ham yaratilgan. Lekin hatto ular ham xizmat itlarining o'rnini to'liq bosa olmaydi.**



«Ozod» mahallasida yashovchi Y. Qambarova bozor-o'chardan uyiga qaytganida, deraza oynasi singanini ko'rdi. Singan oyna oralig'idan ichkariga boqib, uyiga chaqirilmagan «mehmonlar» kirganini tushundi. Ayol zudlik bilan «102» raqamiga qo'ng'iroq qilib, voqea haqida xabar berdi. Tarkibida viloyat IIB JTSB JXX Kinologiya bo'linmasining 2-guruhi kichik inspektor-kinologi, safdor Eldorbek Karimov va uning «Rokki» laqabli xizmat iti bo'lgan tergov-tezkor guruhi hodisa joyiga yetib keldi. Jabrlanuvchi ayol 3 million so'mlik zargarlik buyumlarini bir parcha atlas matoda saqlaganini ma'lum qildi. Mato parchasi xonaning bir chetiga uloqtirilgan holda yotardi. It uni hidladi va darhol iz oldi. Ko'p o'tmay jonivor tezkor xodimlarni shu mahallaning Soybo'yi ko'chasidagi uylardan biriga boshlab bordi. Shu uyda istiqomat qiluvchi, muqaddam sudlangan A.Sayidahmad jinoyat sodir etishda gumon qilinib, qo'lga olindi.

U inkor etib bo'lmaydigan dalillar qarshisida o'z qilmishiga iqror bo'ldi va o'g'irlangan zargarlik buyumlarini berkitgan joyni ko'rsatdi.

Andijon tumani IIB Jinoyat qidiruv bo'linmasiga «Aylanma» mahallasida yashovchi X. Erkinboy o'z xonadonida giyohvandlik moddalari saqlayotgani haqida tezkor xabar kelib tushdi. Ma'lumotni tekshirish uchun manzilga tarkibida kinologiya bo'linmasi birinchi guruhi kichik inspektor-kinologi, safdor Murodjon Yo'ldoshev va uning «Reks» laqabli xizmat iti bo'lgan tezkor guruh jo'natildi.

Giyohvandlik moddalari saqlanishida gumon qilinayotgan X.Erkinboy bu ma'lumot yolg'on ekanini aytdi. Shunda kinolog xizmat itiga buyruq berdi. «Reks» hovlidagi xonalarni hidlab, tandir yonida to'xtadi va vovulladi. Tezkor xodimlar tandirdagi kul orasidan plastik plyonkaga o'ralgan 132,28 gramm foydalanishga tayyor marixuanani topishdi.





# ANDIJON VILOYATI

## FIDOYI YOSHLAR

### BIZ ISTIQLOL FARZANDLARIMIZ

1991-yilda tug'ilgan o'g'il-qizlar yurt bilan birga shakllanish yo'lini bosib o'tishdi. Bugungi suhbatdoshlarimiz mustaqillik tengdoshi – IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli 7553-sonli harbiy qism harbiy xizmatchilari.



– Ishonchim komilki, bizni yorqin kelajak kutmoqda, chunki buning uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ammo ushbu kelajak har birimizga, yaxlit xalq bo'lib harakat qilishimizga bog'liq, – deydi safdor **O'ktam Hamroyev**. – Men Vatanim O'zbekiston ekanligidan faxrlanaman. Sobitqadamlik bilan olg'a borayotgan ona yurtim muvaffaqiyatlaridan sevinaman. Biz, harbiy xizmatchilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklangan. Mustaqillik yillarida davlatimiz erishgan yutuqlarni yosh avlod asrab-avaylashi, yanada ko'paytirishi zarur. Har birimiz, istiqlol tengdoshlari Yangi O'zbekiston taraqqiyoti va gullab-yashnashiga salmoqli hissa qo'shamiz.

– Men uchun mustaqillik, eng avvalo, o'z yurti, xalqi, madaniyati, ilm-fan va adabiy yutuqlari bilan faxrlanish, iftixor tuyg'usidir. Odamlar hech bo'lmaganda bir marta bizning yurtimizga kelishga intilayotganidan xursandman, – deydi safdor **Javohir Niyozaliyev**. – Men uchun davlatni professional kadrlar – mamlakat manfaatlarini uchun xizmat qiladigan insonlarning boshqarishi juda muhim. Toki O'zbekiston yoshlari o'z taraqqiyot yo'lini tanlash huquqiga ega bo'lsin.

– Mustaqil yurt bilan birga tug'ilganligim zimmamga muayyan mas'uliyat yuklaydi, – deydi kichik serjant **Ortiqjon**

**Imomov**. – Men bolaligimdan suveren davlatimiz ravnaqiga hissa qo'shish uchun harbiy xizmatchi bo'lishni orzu qilardim. Biz, mustaqillik tengdoshlari, el-yurt bilan birga ulg'aydik, kamolot va kasbiy shakllanish yo'lida dadil qadam tashlamoqdamiz.

**Shuhratillo Azimov** O'zbekiston Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tab, shartnoma asosida xizmatni davom ettirishga qat'iy qaror qildi. Kichik serjant Sh. Azimov jangovar va xizmat tayyorgarligi a'lochisi, yoshlarning jonkuyar murabbiyi.

– Mamlakatda uchinchi Uyg'onish davri poydevori qo'yilib, Yangi O'zbekiston qurilishi davom etmoqda. Xalqimiz yuksak marralar sari dadil qadam tashlamoqda. So'nggi yillarda yurtimizning turli hududlarida qad rostlagan yirik inshootlar O'zbekistonning orzu-intilishlari naqadar buyuk, xalqimizning bunyodkorlik salohiyati naqadar yuksak ekanidan dalolat beradi, – deydi kichik serjant **Shuxratillo Azimov**.

– Mustaqillik tengdoshi ekanimdan, egninga osoyishtalik posboni libosini kiyganimdan faxrlanaman, – deydi kichik serjant **Nodirbek Hasanov**. – Kelgusida soha rivoji uchun o'z hissamni qo'shib, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligi yo'lida yanada shijoat bilan xizmat qilishga va'da beraman.

## FAXRIYLAR – FAXRIMIZ

### DOIMO SAFDA

Valijon Bo'tayev 1984-yilda IIV Toshkent oliy maktabini tamomlagach, Andijon shahar IIB hududiy profilaktika inspektori etib tayinlangan. So'ngra katta tezkor vakil, jinoyat qidiruv bo'linmasi boshlig'i lavozimlarida xizmat qildi. O'sha davrda podpolkovniklar – Vladislav Gurtoenko va Anvar Jo'rayev unga ustozlik qildi.

Andijon viloyati IIB Jinoyat qidiruv bo'limi boshlig'i, Sirdaryo viloyati Mehnatobod tumani IIB boshlig'i, Marhamat, Andijon tumanlari IIB boshlig'i va boshqa mas'uliyatli lavozimlarda xizmat qilgan V. Bo'tayev 2011-yilda Andijon viloyati IIB HPB boshlig'i o'rinbosari lavozimidan podpolkovnik unvonida pensiyaga chiqdi.

Ko'p yillik xizmati davomida iste'fodagi polkovnik Dilshod Mo'minov, podpolkovniklar Davronbek Yusupov, Furqat Arslonbekov, Sodikjon Nishonov, Bahodir Burhonov, Bektemir Bahromov kabi bir qator shogirdlarni tarbiyaladi. Bugungi kunda iste'fodagi podpolkovnik Valijon Bo'ta-

yev Andijon shahri IIOFMB faxriylar kengashiga rahbarlik qilmoqda.

– Qariyb 1500 nafar pensionerni jamlagan faxriylar kengashi jinoyatchilikka qarshi



kurashuvchilarning eng yaxshi ma'naviy-axloqiy fazilatlarini va vatanparvarlik an'analarini posboni hamda ichki ishlar organlari yosh xodimlarining faol ustozini bo'lishdek mas'uliyatli vazifani o'z oldiga qo'ygan, – deydi iste'fodagi podpolkovnik V.Bo'tayev. – Kengash faxriylarning turli ijtimoiy muammolarini hal

etishda faol ishtirok etib, ichki ishlar organlari faxriylari va nogironlarga yordam ko'rsatib kelmoqda, o'z boy hayotiy tajribasini yosh avlod bilan o'rtoqlashib, yoshlar va o'sib kelayotgan avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ishlarni amalga oshirmoqda.

Ko'pgina faxriylar shaharning turli tashkilot va korxonalarida talabgir mutaxassis hisoblanadi, kimdir iste'fodan so'ng o'z ishini yo'lga qo'ygan, yana kimdir mahalla fuqarolar yig'inlarini boshqarmoqda. Biroq bandligiga qaramay, ularning aksariyati xizmatdagi ichki ishlar

organlari xodimlariga ko'makdosh, o'zlari yashayotgan mahallalarda faol yordamchi, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Faxriylar bugun ham huquqni muhofaza qilish organlarining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Ichki ishlar organlari faxriylari doimo safda.

## ЕСТЬ ТАКАЯ СЛУЖБА

### БЕЗОПАСНОСТЬ – В ЦЕНТРЕ ВНИМАНИЯ

– С начала текущего года личный состав неоднократно выезжал на места, где были обнаружены подозрительные предметы, – говорит командир специального отряда № 9 Управления по проведению специальных операций и обезвреживания взрывоопасных предметов подполковник Шерзод Халматов. – В целях повышения профессионального мастерства и повышения боевой подготовки в подразделении проводятся занятия, на которых изучаются новое оборудование, передовые методы обезвреживания взрывоопасных предметов. Сотрудники также принимали участие в полномасштабных учениях, в которых были



задействованы сотрудники патрульно-постовой службы, МЧС и Национальной гвардии.

Специалисты отряда выезжают в подразделения УВД Андижанской области, войсковые части Караульных войск и части по обеспечению безопасности в международных аэропортах, где проводят занятия с личным составом, разъясняют, что необходимо предпринять в случае обнаружения подозрительных предметов, на каком расстоянии выставлять оцепление. Куда следует сообщать в случае необходимости.

Опыт, приобретенный специалистами группы специального отряда, уникален.

Qo'shsahifa materiallarini o'z muxbirimiz Boris KLEYMAN tayyorladi.





# MILLIY MUSTAQILLIK - YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM ASOSIDIR

Biz o'ttiz uch yillik to'yini nishonlash arafasida turgan buyuk va bebaho ne'mat – mustaqillikning milliy taraqqiyotimiz, bugungi va kelgusi avlodlar taqdiri, kelajagi uchun beqiyos ahamiyati yillar o'tishi bilan tobora ortib bormoqda. Yangi O'zbekistonning davlat mustaqilligi xalqimizning milliy manfaatlarini, tinch va osuda hayotini ta'minlash, mamlakatimizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yuksaltirishning mustahkam poydevori bo'lib kelmoqda.

*Oradan yillar, asrlar o'tadi. Lekin milliy davlatchiligimizni, o'zligimiz va insoniy haq-huquqlarimizni tiklab bergan, barcha yutuq va marralarimizning zamini bo'lgan Mustaqillik kuni biz uchun, kelgusi avlodlarimiz uchun doimo eng ulug', eng aziz bayram bo'lib qoladi.*

**Shavkat MIRZIYOYEV**



Mustaqillik qadrini begona bir xalq qo'lida mute bo'lib yashagan odamlardan so'ragan yaxshiroq. Hozir ham millionlab nufuzga ega xalqlar borki, o'z davlatini qura olmaydi, boshqa bir titul xalqlar davlatida ikkinchi darajali, hatto mayda millat, deya hisoblanib yashaydi. Sport musobaqalarida o'z bayrog'i ostida maydonga chiqq olmaydi. Xalqaro munosabatlarda boshqa davlatlar bilan bevosita mulqot qila olmaydi. Eng achinarlisi, o'z yeridagi yer osti va yer usti boyliklariga o'zi egalik qila olmaydi. O'z ona tilida gapira olmaydi. Katta xalq tilini o'rganishga, shu xalq madaniyatini ulug'lashga majbur bo'ladi. O'z tarixini unutishga yoki katta og'a aytgan yo'sinda tasvirlashga majbur bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, mustaqillik bu ozodlik va erkinlik deganidir.

Ma'lumki, mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyatini qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, xalqaro maydonda Yangi O'zbekistonning munosib o'rin egallashiga qaratilgan kompleks choratadbirlar amalga oshirildi.

Bugungi kunda dunyoning turli nuqtalarida qanday voqealar bo'lib turganidan barchamiz xabardormiz. Notinch vaziyat tufayli insonlar aziyat chekmoqda. Ana shunday bir sharoitda xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi, desak, aslo yangilishmaymiz.

Bugun yurtimizning barcha go'shalarida **«BIR BO'LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!»** degan bosh g'oya tantanasi jaranglamoqda. Joylardagi sayllarda, tadbirlarda, davra suhbatlarida bu g'oya faxrlanib, ko'tarinki ovoz bilan zikr qilinmoqda, qalblarga ruh baxsh etmoqda. Zero, Vatandan azizroq makon yo'q bu dunyoda. Yer yuzida Yangi O'zbekistonimiz – yakka-yu yagona, biz u bilan har qancha faxr-iftixor qilsak kam. Bunga uning boy o'tmishi ham, ravnaq topayotgan buguni ham, porloq kelajagi ham to'la asos bo'ladi.

Ushbu g'oya zamirida xalqimizning birligi, jipsligi, hamfikir va jonkuyarligi, el-u yurt sha'ni va osoyishtaligi yo'lidagi birdamligi kabi ezgu ma'no-mazmun mujassam.

Darhaqiqat, birdamlik bo'lgan joyda yuksalish, oldinga siljish, yuksak marralar bo'y ko'rsatadi. Dono xalqimizning «Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar» degan maqoli ham aynan shu mazmunda aytilgan purhikmat topilmadir. Xuddi shu kabi birlashgan el-ulus bir xalq, bir Vatan bo'lib, ko'zlangan eng yuqori pog'onalarga chiqishga erishadi. Dunyoning rivojlangan davlatlari qatoridan o'rin olish, xalqning eng baxtiyor, osoyishta el sifatida yashashiga erishish, inson qadr-qimmatini yuksaltirish, intellektual salohiyati yuksak avlodni kamolga yetkazish bugungi islohotlarning asl mazmunidir.

Mustaqillik, bu yilda bir marta, faqat mustaqillik bayramida emas, har kuni, har soat fikr yuritiladigan, har dam shukr qilinadigan, qadri, sharafi, bardavomligi ko'z qorachig'idek asrab-avaylanadigan bebaho ne'matdir. Uning sharofati bilan ijtimoiy, ma'naviy va diniy qadriyatlarining qaytadan tiklanishi va rivojlanishi uchun keng yo'l ochildi. Mustaqillik bizga o'zligimizni qaytardi. Mustaqillik bizga din-u diyonatimizni qaytardi. Mustaqillik – erkin e'tiqod va ibodatlarimizni qaytardi.

So'nggi yillarda Prezidentimizning farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan vazifalar, xususan, inson qadrini ulug'lash, har kimning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishiga aylandi. Inson qadri degani, sodda qilib aytganda, insonni ulug'lash va insonlar o'rtasidagi o'zaro mehr-muhabbatni qadrlash deganidir. «Inson qadri» tushunchasi – insonning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari har tomonlama ta'minlanishini ham o'zida qamraydi.

Ayniqsa, O'zbekiston birinchi marta BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi a'zoliciga saylangani bu sohadagi amaliy faoliyatimizning yuksak e'tirofi bo'ldi. 2021-yil 1-yanvardan buyon mamlakatimiz BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi a'zosi

sifatida faol va samarali faoliyat olib bormoqda.

Dunyodagi hech bir mamlakatda so'nggi yillarda O'zbekistondagi kabi keng ko'lamlil islohotlar amalga oshirilmagan. Toshkentning yaxshi qo'shnicilik siyosati tufayli Markaziy Osiyo davlatlari ilk bor bugungi kunda dolzarb bo'lgan mintaqaviy masalalarni ochiq va samimiy muhokama qila boshladi.

Joriy yilning 9-avgust kuni Ostona shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining oltinchi Maslahat uchrashuvi va unda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan g'oyalar ham fikrimizning yaqqol dalilidir.

Mustaqillik tufayli mamlakatimiz suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatga, xalqaro huquqning to'laqonli subyektiga aylangani rost. Buning uchun o'tgan yillar davomida barcha sohada birdek olib borilgan amaliy sa'y-harakatlar o'z samarasini bermoqda.

Eng muhimi, bugun istiqlolimiz sharofati bilan erishayotganlarimiz xalqaro maydonda tan olinib, e'tirof etilmoqda. Ko'plab xalqaro reyting va indekslarda mamlakatimiz nomi yuqori o'rinlarda qayd etilayotgani quvonarlidir.

Bundan keyin ham bir bo'lib, birdamlikda, yagona xalq sifatida harakat qilsak, albatta, eng yuksak cho'qqilarni zabt etajakmiz. Vatanimiz mustaqilligi shahdam odimlarimizga, shiddatli harakatlarimizga kuch va mayoq bo'lib qolaversin!

**O'z muxbirimiz.**



KASB FIDOYISI

## BATALYONNING JASUR YIGITI

Tungi soat 23:00 lar atrofida Urganch shahrining Pahlavon Mahmud ko'chasidagi Amir Temur xiyoboni hududida xizmat vazifasini o'tayotgan viloyat IIB JTSB PPX batalyoni 2-otryad inspektori, serjant Ravshan Jumanazarov urganchlik Anaxon Abdullayevaga tegishli bo'lgan avtomashinadan «Samsung» KT rusumli uyali aloqa telefoni, «Virshi diamond» ayollar atiri hamda 130 ming so'm pul o'g'irlanganligidan xabar topdi. Jabrlanuvchi bilan suhbatlashgan inspektor hamkasbi bilan darhol gumon qilinuvchining iziga tushishdi.

Ular shahardagi 1-sonli MTTga yaqinlashganida, piyodalar yo'lakchasidan shoshib borayotgan yigitni ko'rib qolishdi. Patrul-post xizmati avtomashinasiga ko'zi tushgan yigit zudlik bilan tashkilot binosining orqa tomoniga yashirindi. Serjant R.Jumanazarov sheringiga xizmat avtomashinasini bino oldida to'xtatishni buyurdi va o'zi qorong'ilik qo'yniga yashiringan kimsa tomon shoshildi. Yon-atrofn kuzatarkan, shubhali kimsa ko'rinmadi. Shu payt qo'shimcha bino orqasidan otilib chiqqan yigit inspektorga chap bergancha qochib boshladi. Bunday holatga shay turgan serjant R.Jumanazarov bir zumda unga yetib oldi va qochoqni yerga qulatdi. Shubhali kimsa shu zahoti 3-sonli IIBga olib kelindi va shaxsiga aniqlik kiritildi. Gumonqilinuvchi urganchlik K.T.ning

yoni xolislar ishtirokida ko'zdan kechirilganida, A.Abdullayevaga tegishli bo'lgan avtomashinadan o'g'irlangan ashyolar borligi aniqlandi. Serjant R.Jumanazarovning hushyorligi, xizmat vazifasiga mas'uliyat bilan yondashishi tufayli sodir etilgan o'g'irlik jinoyati 25 daqiqa ichida fosh etildi.

Ravshan Jumanazarovning ichki ishlar organlarida xizmat qilayotganiga yigirma uch yildan oshdi. Yangiariq tumani IIB huzuridagi Qo'riqlash bo'linmasida xizmat faoliyatini boshlagan lavhamiz qahramoni Urganch shahar IIB Vaqtincha saqlash hibsxonasida nazoratchi, viloyat IIB YHXB 2-safarbarlik guruhi YPX inspektori lavozimlarida ham samarali xizmat qildi. Mana besh yildirki, u PPX batalyonida xizmat faoliyatini davom ettirmoqda. O'tgan davr mobay-



nida xizmat vazifasiga mas'uliyat bilan yondashgan bu yigit ko'plab jinoyatlarni fosh etish, qidiruvdagi shaxslarni qo'lga olishda faol ishtirok etdi. Yetmishdan ortiq sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarining barvaqt oldini olishga erishdi.

– Jamoamizda qasamyodiga sodiq bo'lgan mard va jasur yigitlar ko'pchilikni tashkil etadi, – deydi batalyon komandirining o'rinbosari, podpolkovnik Alijon Davlatov. – Ulardan biri serjant Ravshan Jumanazarovdir. U xizmat

vazifasiga mas'uliyat bilan yondashib, samarali natijalarni qo'lga kiritmoqda. Qolaversa, ko'plab yosh xodimlarga kasb sirlarini o'rgatib, ularning mehribon ustoziga aylangan. Yurtimiz tinchligi, xalqimiz osoyishtaligini ta'minlashdek sharafli vazifani mas'uliyat bilan ado etayotgan mana shunday dovyurak yigitlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi.

**Xudoybergan JABBOROV,**  
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

OTALIQQA OLINGAN MAKTAB

## YOSHLARGA G'AMXO'RLIK — KELAJAKKA G'AMXO'RLIK

**Xatirchi tumanining «Binokor» mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan 33-sonli maktab 1976-yildan beri faoliyat yuritadi. Bir necha yil oldin ushbu ta'lim maskanining deraza romlari eskirib, sovuqdan himoya qilolmay, sinf xonalari ham, maktab hovlisi ham ta'mir talab, isitish qozonxonasi esa nosoz ahvolga kelib qolgandi.**

Maktab tuman IIB tomonidan otaliqqa olingach, dastlab maktab hovlisining kirish qismi asfalt bilan qoplandi. Bu yil asfaltlash ishlari yakuniga yetkaziladi. Deraza romlari almashtirildi. Maktabga 4 ta qozonxona o'rnatilib, isitish quvurlari yangilandi. Hamkor tashkilotlar va homiylar yordami bilan sinf xonalari ta'mirdan chiqarildi.

Zamonaviy qurilma va ko'rgazmalar bilan jihozlangan yo'l harakati xavfsizligi xonasi foydalanishga topshirildi. Ayni paytda 1059 nafar o'quvchi tahsil oladigan mazkur ta'lim tashkilotida 30 ta sinf xonasi, shuningdek, inspektor-psixolog hamda profilaktika inspektori xonalari ham mavjud.

– Tumanimizning osoyishtalik posbonlari sharafti bilan maktabimiz yangicha ko'rinish kasb etib, qulay shart-sharoitlarga ega bo'ldi. Bunday ijobiy o'zgarishlar nafaqat o'quvchilarimizni,

balki biz pedagoglarni ham xursand qildi. Bu esa ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qilishi shubhasiz, – deydi maktab direktori Zamira Mamatova.

– Shu yilning oxiriga qadar yana bir necha loyihani amalga oshirishni rejalashtirganmiz. Jumladan, o'quvchilar uchun sun'iy qoplamali futbol maydonchasi barpo etiladi. Maktab hududi devor bilan o'raladi, – deydi Xatirchi tumani IIB boshlig'i, podpolkovnik Obid Ro'zimurodov.

Yoshlarga g'amxo'rlik kelajakka g'amxo'rlik demakdir. Xatirchilik osoyishtalik posbonlarining bu boradagi xayrli ishlari bardavom bo'lishini tilab qolamiz.

**Mahliyo XOLOVA,**  
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.





# НАЦИОНАЛЬНАЯ НЕЗАВИСИМОСТЬ – ПРОЧНАЯ ОСНОВА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Тридцать три года назад на карте мира появилось новое суверенное государство – Республика Узбекистан. В истории нашей Родины началась новая эпоха – эпоха национального возрождения и независимости.

За минувший период республика прошла большой путь. Закалившись в испытаниях, Узбекистан сформировался как государство, имеющее четкие цели, свой курс развития.

Нынешнее стремительно меняющееся время требует мыслить по-новому, работать с еще большей отдачей. Принятие обновленной Конституции Узбекистана путем всенародного голосования на референдуме, проведенном 30 апреля 2023 года, послужило укреплению законодательных основ строительства Нового Узбекистана, еще раз продемонстрировав политическую зрелость общества.

В целях обеспечения волеизъявления народа о строительстве свободного, процветающего Нового Узбекистана указами Президента утверждены Стратегия развития Нового Узбекистана и в ее развитие – Стратегия «Узбекистан – 2030». Они предусматривают меры по дальнейшему повышению благосостояния народа, трансформации отраслей экономики, обеспечению верховенства закона, укреплению гражданского общества на основе принципа «Во имя чести и достоинства человека».

Кроме того, Стратегия «Узбекистан – 2030» нацелена на:

- ▶ вхождение республики в число государств с доходом выше среднего путем устойчивого экономического развития;
- ▶ создание системы образования, медицины и социальной защиты, соответствующей международным стандартам;
- ▶ создание благоприятных экологических условий для населения;
- ▶ построение справедливого социального государства.

Реализация данных мер – приоритет всех государственных органов и организаций. Кабинет Министров, Жокаргы Кенес Каракалпакстана, Кенгаши народных депутатов областей и города Ташкента на системной основе рассматривают ход решения поставленных задач. Деятельность по доведению до населения информации о достижении целевых показателей осуществляется под девизом «Стратегия «Узбекистан – 2030» – народная стратегия».

Известно, что в основе политической независимости лежит прежде всего экономическая независимость. Фундаментом для

ее укрепления служат достигнутые результаты. За последние шесть лет в стране объем валового внутреннего продукта вырос более чем в 1,5 раза, количество субъектов предпринимательства – в 2 раза, промышленный рост превысил 40 процентов.

Узбекистан, следуя по пути модернизации и обновления, последовательно продолжает демократические реформы. «И мы никогда не свернем с этого пути, который полностью отвечает интересам нашего народа», – заявил Президент Шавкат Мирзиёев.

Новый Узбекистан – это открытое и справедливое государство, заботящееся о каждом гражданине. Человек, его честь и достоинство на конституционном уровне объявлены высшей ценностью.

В стране делается все для воспитания высокоинтеллектуальных, обладающих твердой волей юношей и девушек – истинных патриотов. Последовательно



лированию труда педагогов. «Образование, несомненно, является и решением любой проблемы, и важным фактором нашего завтрашнего

дня», – подчеркнул Президент.

В соответствии со Стратегией «Узбекистан – 2030» расширяется доступ населения к качественным и квалифицированным услугам здравоохранения, стартовали крупные проекты по развитию данной сферы. Цель

– утверждение здорового образа жизни, увеличение средней ее продолжительности.



В центре внимания руководства страны вопросы развития предпринимательства – фактора уверенности людей в завтрашнем дне. На основе развития бизнеса создаются дополнительные рабочие места, увеличиваются доходы. Осуществляются реформы по снижению налогового бремени на население и предпринимателей, упрощению налоговой системы. Создаются условия для здоровой конкурентной среды.

Растет авторитет страны на международной арене. Узбекистан продолжает внешнюю политику на основе дружбы и равноправия в отношении государств-партнеров и международных организаций. Приоритетное внимание при этом уделяется расширению дружественных отношений с соседними странами. Связи Нового Узбекистана с государствами Центральной Азии во всех сферах поднимаются на качественно новый уровень. «Сегодня мы уже можем с уверенностью говорить о начале формирования общерегиональной идентичности», – заявил Шавкат Мирзиёев на шестой Консультативной встрече глав государств Центральной Азии, состоявшейся 9 августа в Астане. Президент поддержал принятие Концепции развития регионального взаимодействия на период до 2040 года, а также предложил подготовить многостороннее Соглашение о стратегическом партнерстве и сотрудничестве в Центральной Азии.

Народ независимого Узбекистана уверенно идет к достижению высоких рубежей – построению Нового Узбекистана. Как подчеркнул лидер страны, «народ, который сумел превратить время – в возможность, возможность – в успех, а успех – в фундамент развития, это – великий народ. Сегодня наш трудолюбивый, мужественный и благородный народ проявляет именно такие качества».

Радик ТУМΠΑРОВ,  
соб. корр.





▶ YANGI O'ZBEKISTON – YANGI ICHKI ISHLAR ORGANLARI



«TOSHKENTGA  
XUSH KELIBSIZ!»



Azim poytaxtimiz bugun yanada ko'rkamlashib, kundan-kunga chiroy ochib bormoqda. Yirik megapolis maqomini olgan bosh kentimizga har kuni minglab mahalliy va xorijlik mehmonlarning tashrifi kuzatiladi. Sayyohlarning xavfsizligini ta'minlash esa Toshkent shahar IIBB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi xodimlarining zimmasida.

Yoz mavsumining jazirasida ham fidoyilik bilan xizmat olib borayotgan sohaviy xizmat xodimlarining turistlar bilan muomala madaniyatini

kuzatib quvonasiz, hatto ko'ngilda o'zgacha faxr hissini tuyasiz. Ularning «Assalomu alaykum, Toshkentga xush kelibsiz!» degan bir necha xorijiy tillardagi salomlashishlarini eshitib, ushbu xizmat xodimlariga bo'lgan hurmatingiz o'n chandon oshadi.

Abu KENJAYEV,  
o'z muxbirimiz.

▶ BIR KUNI

«YO'Q», DEYA OLMADIM

**Bu voqea 2006-yilning yanvar oyida yuz bergandi. Ota-onam va jigarlarim bilan diydorlashish maqsadida kech tushganda uyga kirib bordim. Endigina ichki ishlar organlariga xizmatga qabul qilinganim uchunmi, onam darrov so'roqqa tutdi: «Qiynalmayapsanmi?» Men og'iz juftlashga ulgurmay, otam: «Xavotirlanma, qizing hamma ishni eplaydi», deya onajonimning xavotirlarini aritmoqqa kirishdi.**



Shu payt bir kilometrcha narida yashaydigan hamqishlog'imiz G'ayrat kelib qoldi. U kelinoyisini to'lg'oq tutayotgani, 15 kilometr uzoqda joylashgan tuman markazidagi kasalxonaga eltish uchun ulov topa olmayotganliklari uchun tibbiyot kollejida o'qiganim esiga tushib qolib, to'g'ri uyimizga kelaverganini hayajon bilan so'zladi.

Yigitchani tushunardim, chunki o'sha paytlarda qishlog'imizda avtomashina ko'p emasdi, qolaver-

sa, biz tomonlarga telefon tarmog'i tortilmagan, uyali aloqa vositasi anqoning urug'idek gap edi. Nima bo'lganda ham, ayolga yordam qilolmasdim. Chunki tug'uruqxonada ishlamaganman, shu bois bola va onaning hayotini xatarga qo'ya olmasligimni tushuntirdim.

G'ayratning ko'zlaridagi umid so'ndi, ketmoqqa chog'langanida, onam menga: «Bor, bolam, qo'lingdan kelgan yordamni qil, ularni ilojisiz

qoldirma, ungacha avtomashina topilib qolar» dedi. «Yo'q», deya olmadim.

Tun zulmati cho'kkan yo'ldan ketarkanmiz, tug'uruq amaliyoti o'tkazilishiga oid bilimlarni xotiramda jonlantirishga urinardim. Yetib borganimizda ayolning qiynalayotgani sezilib turardi. Qisqasi, tavakkal qilishga to'g'ri keldi...

Chaqaloq yig'isi qalblarimizni titratib yubordi. Axir u beshikast dunyoga keldi. Ayniqsa, onaning sevinch ko'z yoshlaridan vujudimdagi barcha hadik va qo'rquv tarqab ketgan edi. Qachon, qayerda bo'lmasin olingan bilim o'z kuchini yo'qotmas ekan. Garchand bu borada tajribam bo'lmasa-da, go'dakni sog'-salomat dunyoga kelishiga sababchi bo'lganim uchun shu sohada ham o'qiganimga shukronalar qildim. Albatta bunga onamning bir og'iz so'zi katta dalda bo'lganini ko'p eslayman. Ezgu ish uchun qilingan tavakkal xayrli bo'lishini shogirdlarimga ham aytib turaman.

Sayyora XOLMIRZAYEVA,  
podpolkovnik.



## YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

## QONUN USTUVOR, JAZO MUQARRAR

SA'Y-HARAKATLAR  
SAMARASI

**Qarshi shahar IIOFMBda yosh xodimlarning ma'naviy-ma'rifiy, ijodiy va intellektual salohiyatini oshirish, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish, kasbiy, jangovar va jismoniy tayyorgarligini mustahkamlash borasida qator sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda.**

Bugungi kunda boshqarmada 40 nafar yoshlar ustozlaridan xizmat sirlarini o'rganib, samarali faoliyat olib bormoqda. Ular zimmasidagi topshiriqlarni bekamu ko'st bajarish bilan bir qatorda, jamoat ishlarida ham faol. Boshqarma hovlisidagi o'yingohda yosh xodimlar bilan sport mashg'ulotlari o'tkazilib, jismoniy va jangovar shayligi oshirilmoqda. Xodimlarning ruhiy va emotsional holatini yaxshilash maqsadida boshqarma psixologlar guruhi va oliy ta'lim muassasalarining mutaxassislari ishtirokida amaliy mashg'ulot va treninglar o'tkazib kelinmoqda.

Faxriylar kengashi hamkorligida «Uch avlod uchrashuvi» o'tkazilmoqda. «Ustoz-shogird» an'analarining namunali tashkil etilgani yosh xodimlarning kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, yosh xodimlarning kitobxonlik salohiyatini oshirish maqsadida o'qish tavsiya etilgan jahon va o'zbek adiblarining asarlari bo'yicha sinovlar olish yo'lga qo'yilgan. Buning samarasi o'laroq, viloyat ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida muntazam o'tkaziladigan «Zakovat» intellektual o'yinlarida Qarshi shahar IIOFMB jamoasi faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda.

Yaqinda «Besh tashabbus olimpiadasi» doirasida o'tkazilgan «Yilning eng faol yoshlar yetakchisi» tanlovining hududiy bosqichida mazkur boshqarma Yoshlar yetakchisi, **kapitan Javdod Boymurodov** 1-o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, «Eng yaxshi mergan» tanlovida boshqarma huzuridagi Tergov bo'limi tergovchisi, **kapitan Maftuna Shokirova** 3-o'rinni egalladi.

Xizmatga yarasha rag'bat bo'lsa, samara ham yuqori bo'ladi. Xususan, yosh xodimlardan 12 nafariga uy-joy olishi uchun tavsiyanoma, 5 nafariga ota-onasini davolashga yo'llanma, 2 nafariga imtiyozli tarzda avtomashina uchun to'lovlar amalga oshirildi. Shuningdek, faxriylar va yoshlar bilan Xorazm va Buxoroga sayohat tashkil etildi.

**Ural MAHMUDOV,**  
mayor.

Qashqadaryo viloyati.

MAST HOLDA AVTOMASHINA  
BOSHQARGANLAR

**ma'muriy qamoq jazosiga hukm etildi**

*Tajribadan yaxshi ma'lumki, og'ir oqibatli yo'l-transport hodisalarining aksariyat qismi mast holda avtomashina boshqarish yoki tezlikni haddan tashqari oshirish natijasida sodir etiladi. Begunoh insonlarni mayib-majruh qilayotgan, kimningdir umriga zomin bo'layotgan bunday hodisalarning oldini olish uchun esa qo'pol qoidabuzarlik sodir etgan haydovchilarga nisbatan jazo muqarrarligini so'zsiz ta'minlash zarur.*



Bevosita raqamlarga murojaat etadigan bo'lsak, Farg'ona viloyatida 2024-yilning 7 oyi davomida haydovchilar va piyodalar ishtirokida 222774 ta qoidabuzarlik sodir etilgan bo'lsa, shundan 1685 nafar haydovchi transport vositasini mast holda boshqarganligi g'oyat achinarlidir.

Ana shunday huquqbuzarlik sodir etgan haydovchilarga nisbatan jazo muqarrarligini ta'minlash, boshqalarni esa ogohlikka chaqirish maqsadida viloyatning barcha shahar-tumanlarida sayyor sudlar tashkil etilmoqda. Jumladan, Toshloq tumani «Piyozchilik» mahallasida keng jamoatchilik ishtirokida o'tkazilgan sayyor sudda ham haydovchilarning yo'l harakati qoidalariga amal

qilmay, spirtli ichimlik ta'sirida avtomobil boshqargan holatlari bo'yicha to'plangan hujjatlar atroflicha ko'rib chiqildi.

Huquqbuzarlarga tegishli jazo tayinlashdan avval ularning qilmishlari mutasaddi rahbarlar, mahalla faollari hamda keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilindi. Aksariyat yo'l-transport hodisalari mana shunday bepisand haydovchilar tomonidan sodir etilayotganligi ta'kidlanib, bundan boshqalar xulosa chiqarishi zarurligi qayd etildi.

Shu kuni spirtli ichimlik iste'mol qilgan holda avtomobil boshqargan 6 nafar haydovchining harakatiga qonuniy baho berilib, odil sud tomonidan 15 sutka ma'muriy qamoq jazosiga hukm qilindi.

Ana shunday sayyor sud Marg'ilon shahrida ham o'tkazildi. Yo'l-transport hodisasi sodir qilgan, shuningdek, mast holda transport vositasini boshqargan haydovchilarning qilmishlari keng jamoatchilik ishtirokida ko'rib chiqilib, har bir sodir etilgan huquqbuzarlik bo'yicha qonuniy jazolar tayinlandi.

Qo'qon shahrida esa 300 nafardan ortiq haydovchilar ishtirokida o'tkazilgan sayyor sudda bir yil davomida takror va takror qoidabuzarlik sodir etayotgan yoki mast holda rul boshqargan 7 nafar haydovchiga nisbatan 10 sutkadan 15 sutkagacha bo'lgan ma'muriy qamoq jazosi berildi.

– Sayyor sudlarning huquqbuzar haydovchilar va keng jamoatchilik ishtirokida o'tkazilayotgani bejiz emas, – deydi viloyat IIB JXX YHXB Axborot guruhi katta inspektori, kapitan Elbek Qobilov. – Fuqarolar mast holda avtomashina boshqarish ana shunday huquqiy oqibatlariga olib kelishini tushunib yetishlari, jazoga tortilayotgan haydovchilarning holatidan xulosa chiqarishlari zarur.

**Abduvosit SIDIQOV,**  
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.





▶ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

## СЧАСТЛИВОЕ ДЕТСТВО



**Детскую дошкольную организацию (ДОО) «Пахтаой», находящуюся в распоряжении УВД Андижанской области, посещают около 300 мальчишек и девчонок в возрасте от 3 до 6 лет. Основную часть воспитанников детсада составляют дети сотрудников органов внутренних дел, войсковой части Караульных войск МВД, других силовых структур города Андижана, детвора из близлежащих махаллей.**

– У нас 12 групп, – рассказывает заведующая Хуршида Болтабаева. – В процессе воспитательной работы мальчишки

и девчонки посещают музыкальные и хореографические занятия, изучают русский и английский языки. В игровых комнатах

много игрушек, детских книг. Есть игровые площадки, где установлены красочные фигуры героев народных сказок. В летнее время к услугам детей бассейн. В преддверии праздников организовываются концерты и театральные постановки с участием воспитанников.

Совместная игра ставит перед детьми сразу несколько требований: надо договориться о ролях, при-

норовиться друг к другу, оказывать и принимать помощь, решать задачи сообща. Уже трехлетние малыши помогают друг другу справиться с какой-нибудь проблемой. Например, сложить игру-головоломку, построить замок из песка. При этом важно уметь выражать свои мысли. Чем лучше дети владеют речью, тем легче им сблизиться друг с другом.

– Мой сын Мухаммад-ризо посещает подготовительную группу, – рассказывает одна из родителей. – Ему здесь очень нравится. После того как мальчик стал посещать «Пахтаой» он научился читать, пересказывает нам содержание сказок, исполняет песни, которые они с воспитателем разучивали. Мы очень довольны.

Соб. корр.

▶ САМАРКАНДСКАЯ ОБЛАСТЬ

## ПОДДЕРЖКА И ВЗАИМОПОНИМАНИЕ

**Одной из тех, кто выбрал для себя стезю правоохраны является инспектор по работе с женщинами Самаркандского государственного архитектурно-строительного университета капитан Наргиза Примова.**

Будучи подростком она приняла решение, что обязательно станет сотрудником правоохранительных органов.

– Мой выбор мама приняла с трудом. Она хотела, чтобы я стала учителем, – вспоминает капитан. – Возможно потому, что мы жили в отдаленном Нарпайском районе, где все еще сильны традиции. Мама противилась этому решению и выдала меня замуж. В те годы я училась в СамГУ на третьем курсе. С будущим супругом мы познакомились в вузе, он был на курс старше. После окончания учебы в 2006 году все же решила воплотить свою мечту в реальность и подала документы в УВД на рассмотрение моей кандидатуры. Муж поддержал.

За 18 лет службы Наргиза Примова работала и в отделе миграции и оформления гражданства, была и инспектором по работе с несо-

вершеннолетними. Ныне занимает должность инспектора по работе с женщинами СамГУ. Главная ее задача – профилактика преступлений в университете и работа со студентками. Девушек в вузе более тысячи, среди них есть иностранки и те, кто проживает в общежитии. За каждой установлен строгий контроль.

– В какой-то момент поняла, что работа с молодежью мне больше по душе. Очень

хочется помогать девушкам, стараться уберечь от серьезных ошибок, которые могут потом негативно повлиять на их жизнь. Если проступок уже совершен, постараться помочь его исправить. Признаюсь, поначалу мне было сложно, не знала, как заслужить доверие, – признается наша собеседница. – Со временем нашла общий язык и сейчас ко мне девушки приходят сами, рассказывают о проблемах. Были случаи насилия со стороны парней, шантажа девушек. Троем студенткам с начала года был выдан охранный ордер. С юношами проведена беседа. В этом мне помогает мой коллега, который работает с парнями-студентами вуза. Вместе мы проводим профилактические беседы, чтобы избежать правонарушений.

Наргиза Примова не просто профессионал, знающий свою работу, но и любящая жена, мать троих детей. Наргиза признается, если бы не поддержка и взаимопонимание в семье она не смогла бы добиться карьерного роста.

Замира БАЛТАЕВА,  
соб. корр.





# TINCHLIK BO'LSA, RIVOJLANISH BARQAROR

Mingbuloq tumani ham rivojlanayotgan, o'zgarishlar sari yuz tutayotgan hududlardan biridir. Yer ostki-ustki boyliklari zaxirasi ko'pligi sabab Mingbuloq nomi berilgan. Jumladan, Dovduq qishlog'idagi neft zaxiralari, Gurtepa qishlog'idagi shifobaxsh buloqlar, Qo'shqishloqdagi Baland Gurtepa, Uzuntepa, Mulkobod, Qo'g'o-

liko'l qishloqlaridagi buloqlar o'zining ming dardga davoligi bilan mashhurdir. Mirzo Boburning «Boburnoma»sida «Axsikatning janubiy tomonida shunday joylar bordurkim, ov qilg'oningizda samog'a ko'tarilgan tovuslarning rangi yetti xil rangda yal-yal tovlanadi» degan ta'rifida ham aynan Mingbuloq tasvirlangan.



Ayni paytda tumandagi 40 ta mahallada 136 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. Har bir hududga birlashtirilgan profilaktika inspektorlari xonadon-ma-xonadon yurib, huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlashga erishishmoqda. Videokameralar o'rnatilmagan hudud qolmadi hisob.

– Muammolarni tizimli ravishda aniqlash ularni hal etish imkonini beradi. Hozirgi kunga qadar 4 ta mahalla fuqarolar yig'ini «qizil» toifada turibdi. «Madiyarovul», «Kichik Jomasho'y», «Birlashgan», «Ingichka» mahallalariga tajribali profilaktika inspektorlarini tayinlaganmiz. Ular sa'y-harakati bilan mahallalarni jinoyatdan xoli hududga aylantirish borasida ishlar boshlab yuborilgan. Yil yakuniga ko'ra, yaxshi natijalarni kutaymiz, – deydi tuman IIB JXX HPB boshlig'i, kapitan Javlon Nishonov.

**Tuman IIB M va FRB** tomonidan joriy yilning o'tgan davri mobaynida 9441 nafar fuqaroga, jumladan, 1174 nafar 18 yoshga to'lmaganlarga ID-kartasi, 3711 fuqaroga esa xorijga chiqish biometrik pasporti rasmiylashtirilgan.

– «Pasport-viza» tadbirlari davomida MJtKning 223-moddasiga asosan, 398 nafar fuqaroga, Shuningdek, tuman hududida olib borilgan tezkor profilaktik tadbirlar davomida 9 nafar chet el hamda MDH davlatlari fuqarolari, ularning huquqbuzarlik sodir etishiga sharoit yaratib bergan tuman hududida yashovchi xonadon egalari nisbatan ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi, – deydi tuman IIB M va FR bo'linmasi boshlig'i, kapitan Muzaffar Otaboyev.



**Probatsiya guruhi katta inspektori, kapitan Abror Toshpo'latovning** ma'lumot berishicha, axloq tuzatish ishlariga jalb qilinganlar 66 nafar, shartli hukm qilinganlar 9 nafar, muayyan huquqdan mahrum etilganlar 37 nafar, ozodlikni cheklash jazosiga hukm etilganlar 30 nafar, shartli ravishda ozod etilganlar 123 nafarni tashkil etmoqda.

Respublikamiz miqyosida o'tkazilayotgan «Probatsiya oyligi» doirasidagi «Hamkor» maxsus profilaktik tadbiri davomida tuzalish yo'liga o'tgan, o'rnatilgan taqiqlarga rioya qilgan 10 nafar nazorat ostidagi shaxs tayinlangan jazodan xulosa qilganligi va tuzalish yo'liga o'tganligi sababli jinoyat ishlari bo'yicha Mingbuloq tuman sudiga taqdimnoma kiritilib, sud zalidan shartli ravishda ozod etildi. Aksincha, tayinlangan jazodan bo'yin tovlab kelgan 2 nafar nazorat ostidagi shaxsga nisbatan sudga kiritilgan taqdimnomalar qanoatlantirilib, ularning o'talmay qolgan jazo muddati og'irroq jazoga almashtirildi.



**Tuman IIB huzuridagi Tergov bo'linmasi** tergovchi va surishtiruvchilari tomonidan joriy yil boshidan buyon 93 ta jinoyat ishi bo'yicha tergov harakatlari o'tkazilgan. Sudga yuborilgan jinoyat ishlari qo'shimcha tergovga qaytarilmagan.

– Xodimlarimizning faoliyat olib borishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan, – deydi Tergov bo'linmasi boshlig'i, mayor E. Olimov. – Xonalarga o'rnatilgan kameralar tergovchi uchun ham, tergov ostidagi fuqaro uchun ham manfaatli. Xodimlarimiz ham malakali, o'z kasbining fidoyilari. Katta tergovchi, kapitan Oybek Xolmurodov, leytenant Ulug'bek Abduvohidovni o'rnak qilib ko'rsatish mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, tuman ichki ishlar bo'limida jarayon qizg'in. O'z ishiga mas'uliyat va shijoat bilan yondashayotgan soha fidoyilari ayni paytda mustaqilligimizning 33 yilligi bayramini munosib kutib olishga tayyorgarlik ko'rishmoqda.

**Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,**  
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.





XAVFSIZ HUDUD

## MUHIMI – OGOHLIK VA HUSHYORLIK



**Mamlakat miqyosida joriy yilning 3-avgustidan 5-sentabriga qadar «Xavfsiz hudud va mulkiy turdagi jinoyatlar profilaktikasi oyligi» maxsus profilaktik tadbiri o'tkazilmoqda. Xususan, Toshkent shahar Sergeli tumani IIOFMB JXX HPB xodimlari boshqa sohaviy xizmatlar vakillari bilan hamkorlikda jamoat joylarida, yo'lovchi transportlari va bekatlarda, bozorlarda, xonadonlarda, korxonatashkilotlarda, ko'cha va xiyobonlarda fuqarolarimizning jinoyat qurboniga hamda subyektiga aylanib qolmasligi yuzasidan targ'ibot-profilaktik tadbirlari o'tkazishmoqda.**

– Joriy yilning 20-avgust holatiga ko'ra, tumanda mavjud 21163 obyektдан 19863 tasida o'rganish ishlari olib borildi, – deydi tuman IIOFMB boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik Bahridin Sultonov. – Tadbir yanada samarali o'tishi uchun 15 ta patrullik yo'nalishi tashkil etildi.

«Obod va xavfsiz mahalla» tamoyili asosida jinoyat sodir etishga moyil hamda jinoyatdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar aniqlanganligini ham alohida aytib o'tish joiz. Tungi vaqtlarda bemaqsad yurgan yoki shubha uyg'otgan shaxslar bilan tezkor-profilaktik ishlar olib borilyapti. Muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslar rehabilitatsiya markaziga, nazoratsiz yurgan bolalar Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlariga joylashtirildi.

Tadbir davomida 1460 ta ma'muriy huquqbuzarlik aniqlanib, 82 nafar shaxsga nisbatan sud qaroriga asosan ma'muriy qamoq jazosi tayinlandi. Profilaktika inspektorlari tomonidan 161 nafar shaxs pro-

filaktik hisobga olindi. Qidiruvda yurgan 4 nafar shaxs ushlanib, qonun hukmiga topshirildi.

Mahallalarda profilaktika inspektorlari va Milliy gvardiya xodimlari hamkorligida olib borilgan targ'ibot ishlari davomida aholi gavjum joylarga 179 ta videokuzatuv moslamalari o'rnatildi. Shuningdek, qo'riqlash pultiga 33 ta xonadon va 53 ta obyekt ulandi.

«Bekorchilikdan beqarorlik tug'ilar», – deyishadi. Darhaqiqat, ish bilan ta'minlanmagan kishining jinoyatchilikka moyilligi kuchliroq bo'ladi. Shu boisdan mahalla yettiligining sa'y-harakatlari bilan Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining tarkibiy bo'linmalari ko'magida 97 nafar ishsizlarning 19 nafari ishga joylashtirildi va 78 nafariga o'z-o'zini band qilish uchun amaliy yordam ko'rsatildi. Yoshlar ishlari agentligi va tarkibiy bo'linmalari tomonidan jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori bo'lgan yoshlar bilan profilaktik tadbirlar olib borilib, ularning 42 nafari to'garaklar hamda 3 nafari kasb-hunarga jalb etildi.

Oila va xotin-qizlar qo'mitasining tarkibiy bo'linmalari tomonidan 5 nafar ayolning bandligi ta'minlandi, 10 nafariga huquqiy va 16 nafariga psixologik yordam ko'rsatildi. Sog'liqni saqlash muassasalari hisobida turgan shaxslardan 204 nafarining oilaviy sharoitlari manzilli o'rganildi.

Hudud osoyishtaligi va tinchligini hamda yaqinlashib kelayotgan eng ulug', eng aziz bayramimiz Mustaqillik ayyomining ko'ngildagidek o'tishini ta'minlash uchun tuman IIOFMBning sohaviy xizmatlari hamda mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikdagi tadbirlar davom ettirilmoqda.

**Sarvar SOBIROV,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

O'lmas qadriyatlar

## QORAQALPOQ O'TOVI



Qoraqalpoq xalqining o'ziga xos milliy qadriyatlaridan biri o'tov – qora uy hisoblanadi.

\*\*\*

Bugunda qora uylardan hudud turistik salohiyatini oshirishda keng foydalanilmoqda.

\*\*\*

O'tov tiklashda ishlatiladigan ashyolar tayyorlaydigan ustalarni «uychi» deyishadi. Bu kasb ularga ota meros.

\*\*\*

Qora uy chidamli, egiluvchan toldan ishlanadi. Sababi, ko'chmanchilar turmushiga xos bunday boshpanalarni tikish va yig'ish tez-tez takrorlanib turgan. Tabiiyki, buning uchun sinmaydigan, mustahkam yog'och zarur.

\*\*\*



Qora uyning 6, 8, 12 qanotli turlari bor. 5 qanotli uylar kam uchraydi. Odatda, 6 qanot uylar yosh oilalar uchun maxsus tikilgan. 8 qanotli uylar esa oiladagilar soni ko'payganidan so'ng tikilgan.

\*\*\*

Qora uyga naqshli bezaklariga qarab oq o'tov, bo'z o'tov, deb ta'rif berilgan. Qora uyning o'rtasida to'rt qirrali o'choq o'rnatilib, tutuni uy tuynugidan chiqib ketadi. Uy ichida qarshin – ko'rpa-to'shak ostiga qo'yiladigan va ichiga narsa solinadigan buyum qo'yiladi.

\*\*\*

O'tovning o'ng tomonida yoshiga qarab erkaklar, so'l tomonida xotin-qizlar o'tiradi.

\*\*\*

Hozirda Qoraqalpog'iston Respublikasining Chimboy tumanida 20 dan ziyod uychi – o'tov tiklovchilar faoliyat ko'rsatmoqda. Bu yerda ishlab chiqarilayotgan qora uylar Birlashgan Arab Amirliklari, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston kabi mamlakatlarga ham eksport qilinmoqda.



**Qonliko'lda o'tov ko'rinishidagi bekat.**



## ▶ НЕЗАВИСИМОСТЬ В МОЕЙ СУДЬБЕ

## С ПОЗИТИВНЫМ НАСТРОЕМ

**В семье подполковника Анваржона Худойкулова утро начинается с позитивным настроением, каждый ее член спешит к месту любимой работы.**

Начальник организационного отдела Мирзаабадского РОВД Анвар Худойкулов родом из Самарканда.

Призыв на срочную военную службу круто изменил его судьбу. В период службы в одной из частей Министерства внутренних дел, дислоцированной в Намангане, появилось желание стать стражем мирной жизни граждан. В 2002 году успешно пройдя отбор, был назначен инспектором профилактики ОПП Сардобинского РОВД.

Наличие багажа знаний и житейского опыта позволили ему быстро освоиться с новой работой, найти единомышленников, обрести уважение среди населения. Совместными с активом махаллы



усилиями приступили к профилактике правонарушений.

Большую помощь в становлении инспектора оказал подполковник Бобур Мусаев. Старший коллега, работавший в соседней махалле, вводил в тонкости составления протоколов, оформления иных документов, работе с

населением, особенно с той категорией, что представляет особую трудность.

Анваржон не понаслышке знает особенности жизни в эпоху прежнего строя.

– Со всей ответственностью могу заявить, что не променяю нынешнюю жизнь на ту, что была

в период тоталитаризма. Доволен судьбой, семьей, работой, – говорит он. – Благодаря независимости не только страна обрела свободу, но и люди получили право строить судьбу, реализовать себя в любой сфере. Ныне супруга и дети занимаются предпринимательством.

В функциональные обязанности Анваржона Худойкулова входят вопросы организации деятельности дежурной части, изучение обращений юридических и физических лиц. Особое внимание он уделяет обращениям по поводу правонарушений, вызовов общественной безопасности. Подполковник стремится оперативно реагировать на них, ибо считает себя в долгу перед страной и обществом, которые предоставляют широкие возможности для благополучной и счастливой жизни.

**Абдурахмон МУСТАФОКУЛОВ,**  
соб. корр.

Сырдарьинская область.

Фото из семейного архива.

## ▶ РЕСПУБЛИКА КАРАКАЛПАКСТАН

## ЗА БЕЗОПАСНУЮ СРЕДУ В МАХАЛЛЯХ

**На местах проводится месячник «Безопасная территория и профилактика имущественных преступлений».**



Цель мероприятия – создание на основе принципа «Безопасная и благоустроенная махалля» безопасной среды в сходах граждан, ускорение работы по обеспечению общественной безопасности, совместное проведение профилактических мероприятий.

С начала месячника в городе Нукусе выявлено 651 правонарушение. Из них 383 установлены инспекторами профилактики, остальные – сотрудниками других направлений и служб органов внутренних дел. На профилак-

тический учет взяты 66 человек. На принудительное лечение направлены 6 наркозависимых и 15 граждан, страдающих психическими расстройствами. Среди населения выпущено и распространено 1029 буклетов и флаеров.

Кроме того, во всех махаллях Нукуса совместно с женскими активистками проведены индивидуальные беседы с женщинами, предрасположенными к совершению преступлений и состоящими на профилактическом учете. В работу по предупреждению

женской преступности вовлечены соответствующие организации и предприятия. В ходе проводимого месячника были установлены 10 жительниц города, предрасположенных к правонарушениям. Были изучены их проблемы, условия жизни и быта. Приняты меры, в том числе для трудоустройства и направления в моно-центры для овладения востребованными профессиями.

Оказывается помощь представительницам слабого пола, ставшими жертвами насилия.

К примеру, установлено, что гражданка С. С., 1992 года рождения, постоянно подвергалась притеснению со стороны мужа. Ей выдали охранный ордер и направили в центр реабилитации и адаптации женщин.

В целом охранные ордера получили 14 женщин. Им оказывается необходимая юридическая и психологическая помощь. Мероприятия месячника продолжаются.

**Айжамал НАМЕНОВА,**  
подполковник.





BIR BO'LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!

## ULUG' SHODIYONA NAFASI

Mamlakatimizning har bir go'shasida ulug' shodiyo-na nafasi kezayotgan ayni kunlarda mustaqilligimizning 33 yillik bayramiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bo'lib o'tmoqda. Zero, shu aziz Vatan, tinch, osoyishta, jannatmonand diyorda o'zligimiz tan olingan kuni e'zozlash har bir fuqaroning farzandlik burchidir.

IIV Markaziy poliklinikasida ham «Bir bo'lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanimiz!» shiori ostida ma'rifiy tadbir tashkil etildi. Unda IIV Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi mutaxassisi, yuridik fanlar doktori Abdug'afur Sattarov, O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar hamda Jurnalistlar uyushmasi a'zosi, targ'ibotchi-ma'naviyatchi Gulchehra Shahobiddin qizi, IIV MMI va KBTD ma'naviyat va ma'rifat inspektori Zikrilla Ne'matov ishtirok etdi.

Tadbirda so'z olganlar ozod va obod yurtda yashash saodat ekanligi, ayniqsa, mamlakatimizda yurtboshimiz tomonidan olib borilayotgan

tinchlik siyosati va barcha sohalardagi islohotlar inson qadrini ulug'lashga qaratilgani bilan alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlashdi. Shuningdek, bugun bu yangilanishlar samarasini barcha yurtdoshlarimiz o'z ko'zi bilan ko'rib, anglab, qalban his qilib turganini hayotiy misollarda tilga olishdi. Ijodkorlar ona, Vatan, tinchlik, ozodlik mavzusidagi ijod namunalaridan o'qib berishdi.

Ma'rifiy kecha doirasida kasbga sa-

doqat, fidoyilik namunasini ko'rsatib xizmat qilayotgan, o'zining insoniy fazilatlarini bilan jamoa ishonchiga sazovor bo'lgan bir guruh tibbiyot xodimlariga IIV Birlashgan kasaba

uyushmasi qo'mitasining kitoblar jamlanmasi hamda boshqa sovg'alar taqdim etildi.

– O'n olti yildirki, yurtimiz tinchlik-osoyishtaligi yo'lida xizmat qilayotgan xo-

dimlarimizning salomatligini saqlashdek sharafligini hissa qo'shishga harakat qilaman, – deydi IIV Markaziy poliklinikasi terapiya bo'linmasi shoxobcha shifokori, oliy toifali shifokor Feruza Karabayeva. – Bugungi tadbirda kitoblar jamlanmasi bilan taqdirlanganimdan xursandman. Kitob inson uchun bebaho bilimlar manbayidir. Kitobni, ilmni qadrlagan inson kam bo'lmaydi. Barcha yurtdoshlarimizni yaqinlashib kelayotgan mustaqillik bayrami bilan tabriklayman. Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo'lsin!

**Gulnoza TURG'UNBOYEVA,**  
o'z muxbirimiz.



«Zakovat» 1-savolining javobi: Morze aifitposi.

QOROVUL QO'SHINLARIDA

## SPORTDA VA XIZMATDA ILG'OR

**Buxoro shahridagi oddiy oilada dunyoga kelgan mayor O'ktam Rajabov yoshligidan sportga oshno bo'lib ulg'aydi va qiziqishlari ustun kelib, o'z taqdirini aynan shu yo'nalish bilan bog'lashga qaror qiladi. U shunchaki sportchi emas, balki harbiy sportchi bo'lishni diliga tugib qo'ygandi.**

Shu bois, 2010-yilda O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutini tamomlagach, harbiy xizmatga yo'l oladi. IIV Qorovul qo'shinlari, 7534-harbiy qismida turli lavozimlarda va qisqa muddat 7535-harbiy qismida ham xizmat qiladi. Ha, O'ktam Raja-

murabbiysi deb atasak sira yanglishmaymiz. O'ktam Rajabovning sportdagi erishgan yutuqlariga razm soladigan bo'lsak, ko'pchilikni hayron qoldirishi bor gap. Sababi, u bir nechta sport turi bilan shug'ullangan.

«14 yoshimdan buyon sport

sharafligini muho-faza qilish organlari o'rtasida o'tkazilgan qator spartakiadalar, musobaqalarda g'alaba qozondim. Umumiy olib qaralsa, dzjudo, sambo, qo'l jangida mashg'ulotlar

lar tayyorlayman» – deydi **dzjudo, sambo va qo'l jangi bo'yicha xalqaro toifadagi sport ustasi** O'.Rajabov.

Harbiy sportchining universal jang bilan shug'ullanayotganligiga hali ko'p bo'lmadi. Lekin natijalari

**iyada jahon chempionligini,** shu bilan bir qatorda, o'sha yilning o'zida Qirg'izistonda **Osiyo chempionligini** qo'lga kiritdi.

IIV Qorovul qo'shinlari, 7534-harbiy qism, shtab, jangovar tayyorgarlik bo'linmasi, jismoniy tayyorgarlik va sport boshlig'i O'ktam Rajabov shogirdlaridan maksimal darajada mukammallikka intilishlarini so'raydi:

«Men shogirdlarimga nafaqat sportda, xizmatda balki ma'naviy tomonlama ham namuna bo'lishimiz shart deb uqtiraman. Negaki, jismoniy jihatdan chiniqqan xodimlar ma'naviy tomonlama ham o'z ustilarida ishlashsa, ular har tomonlama tez rivojlanadi. Mamlakatimiz ma'noda ishonchli qo'llarda bo'ladi».

**Abror POYONOV,**  
o'z muxbirimiz.



olib borgan bo'lsam, hozirda Universal jang bilan professional shug'ullanaman va shu bilan bir qatorda shogird-

anchayin salmoqli. Jumladan, 2022-yil **Turkiyaning Antaliya shahrida Jahon Kubogi g'olibligiga erishdi.** O'tgan **2023-yilda esa Gruz-**



bov tinimsiz harakatlari ortidan ko'zlagan maqsadlariga yetdi. Xizmat bilan bir qatorda, og'ir bo'lsa-da, mashg'ulotlarni ham tashlab qo'ymay, ko'plab xalqaro musobaqalarda O'zbekiston sharaflini munosib himoya qilmoqda. Bugun uni tom ma'noda harbiy sportchi, ko'plab shogirdlarning sevimli

bilan yashayman. Birinchi dzjudo bilan shug'ullanganman. Keyin Samboda o'zimni sinab ko'rishga qaror qildim. Sambo bo'yicha **2011-yilda Toshkentda o'tkazilgan jahon chempionatida g'olib** bo'ldim. 2014-yilda esa mazkur sport turidan **Osiyo chempioni** degan

O'zbekiston Respublikasi IIV rahbariyati, shaxsiy tarkibi va Faxriylar kengashi vazirlik Orkestrlar xizmati boshlig'i, podpolkovnik Muqimjon Mahmudovga volidayi muhtaramasi

**LAZOKAT** ayaning vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.



## JINOYAT MUHOKAMASI

## QOIDALAR – INTIZOM ASOSI

**Keyingi vaqtlarda yurtimiz yo'llarida haydovchilar, piyodalarning yo'l harakati qoidalariga amal qilmasligi oqibatida sodir bo'layotgan ko'ngilsiz hodisalar yuragimizga g'ashlik solayotgani bor gap. Ayniqsa, oyog'ini gaz tepkisidan uzolmay qolayotgan ba'zi shoshmashoshar haydovchilarning qoidabuzarligi sabab tan jarohati va o'lim bilan bog'liq hodisalardan qancha qalblar parchalanib, kimlarningdir hayoti o'z mazmunini yo'qotmoqda. Eng yomoni, bu kabi holatlarning oldini olish maqsadida doimiy ravishda Yo'l-patrul xizmati xodimlari tomonidan targ'ibot ishlari olib borilayotganiga qaramay, qoidabuzarlar o'z bilganidan qolishmayapti. Oqibatda esa ayanchli yakun, so'nggi pushaymon befoйда.**

Joriy yilning 20-iyul kuni soat 6 lar atrofida Samarqand viloyati Nurobod tumani «Jarquduq» MFY hududidan o'tuvchi 4R 54 avtomobil yo'lining 23-kilometrda «Ingichka-Kattaqo'rg'on» yo'nalishida yo'l-transport hodisasi sodir bo'ladi. «Nexia-3» rusumli avtomashinada harakatlanayotgan haydovchi va bir nafar yo'lovchi tuman shifoxonasiga yotqizilgan.

Yo'l-transport hodisasining sabablari o'rganilganda, haydovchining e'tiborsizligi, ya'ni charchoq alomatlarini tufayli rulda uxlab qolgan, oqibatda esa yo'lining keskin burilish joyida boshqaruvni yo'qotib, mashina ag'darilgani ma'lum bo'lgan. Achinarlisi, avtomobilning old o'rindig'idagi yo'lovchi shifokorlarning tibbiy muolajalariga qaramasdan, shifoxonada vafot etgan.

«Jarquduq» MFYda bu kabi holatlarning oldini olish maqsadida viloyat

IIB JXX YHXB boshqarmasi boshlig'i, YPX inspektorlari, tuman hokimligi vakillari, mahalla faollari hamda keng

jamoatchilik ishtirokida muhokama yig'ilishi bo'lib o'tdi.

– Oqibati juda achinarli bo'lgan holatlarning oldini olishda amaliy ishlarni mahalladan boshlab, oila va har bir xonadonda kuchaytirish zarur, – deydi viloyat IIB JXX YHXB boshlig'i, polkovnik Shavkat Boyxo'rov. – Bunda esa yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan fuqarolar u yo'lovchi bo'ladimi, haydovchi bo'ladimi, harakat ishtirokchisi sifatida mas'uliyatni his etishi kerak. Barcha birgalikda bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilmas

ekan, noxush holatlarning oldini olish qiyinlashadi. Bu borada targ'ibot ishlarini olib borish faqatgina soha xodimlarining ishi, deyish noto'g'ri. Chunki odamlarning jamoat joylarida, umuman yo'llarda harakatlanish madaniyatining shakllanishi ko'p jihatdan ularning o'zlariga ham bog'liq. Shu bois barcha haydovchilardan, yo'lovchilardan yo'l harakati qoidalariga qat'iy amal qilishlarini so'rayman.

Shuningdek, muhokama yig'ilishida haydovchilarning yo'lda hushyorlikni yo'qotishi, ayniqsa, charchaganda avtomashina ruliga o'tirishi va qoidalarga bepisandligi qator muammolarga sabab bo'lishi ta'kidlandi.

Nafsilamrini aytganda, har bir amalimizda e'tiborli bo'lish o'zimizni asrash sari qo'yilgan birinchi qadamdir. Yo'l harakati qoidalari ham talab, ham xavfsizligimiz uchun yozib qo'yilgan, faqat amal qilishimiz shart bo'lgan e'tibor yo'riqnomasidir. Qoidalar buzish uchun yozilmasligini anglaganimiz holda, shaxsiy namuna ko'rsata olsak, turli ko'ngilsizliklarga barham bergan bo'lamiz. Toki, oxiri og'riqli hodisalar shirin, go'zal hayotimizga soya solmasin.

**Gulnoza TURG'UNBOYEVA,**  
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.



## NUQTAYI NAZAR

## O'G'RI BO'LIB TUG'ILMAYDILAR

Deyarli har kuni qaydadir o'g'irlik sodir etilgani haqida xabarlar tarqaladi. Albatta, ularning aksariyati fosh etiladi. Aybdor jazosini oladi. Lekin masala rasman hal bo'lsa-da, bu jinoyatning dog'i, asorati qoladi. Jinoyatchi «o'g'ri» degan sharmandali nom oladi.

Eskidan bor gap: nina o'g'irlagan ham, tuya o'g'irlagan ham o'g'ri. Yoki katakdan tuxum olgan ham, tovuq o'g'irlagan ham qo'li egri. Bu jinoyat uchun ko'pchilik davlatlarda ma'lum muddat qamab qo'yilsa, ayrimlarida egri qo'llar kesiladi.

Yaqinda ijtimoiy tarmoqda shunday bir hikoyaga ko'zim tushdi. Ikki nafar ijarada turgan qizdan biri uy egasining pulini o'g'irlyadi. Ammo bundan xabar topgan uy sohibi o'g'irning kimligini bilsa-da, indamaydi. Hatto qiz kvartiradan chiqib ketaman, deganida ham buni unga bildirmaydi.

Turmush o'rtog'i qizdan o'g'irlagan pulini so'rang, deganida, qizning bir kunmas-bir kun qaytib kelishini aytadi.

Darhaqiqat, oradan uch-to'rt yil o'tgach, o'g'ri qiz yonida bir yigit bilan qaytib keladi. Hol-ahvol so'rashgach, qiz «Men shu yigitga turmushga chiqdim, uning bu ishdan xabari bor, o'sha vaqtda pullaringizni men olgan edim, meni kechiringlar», deb bir dasta pulni stol ustiga qo'yadi.

«O'shanda oilangni so'rab-surish-tirdim, ahvolingni bilgach, zaruratdan

olganingni sezib, indamadik. Ammo so'raganingda yaxshi bo'lardi. O'zimiz berardik. Hechqisi yo'q, bo'lar ish bo'lgan, o'tgan ishga salavot, deydi-yu, pulni qizga qaytarib uzatadi. Bolam, turmush quribsan, albatta, to'y qilgansizlar, mana bu pul esa oilamizdan sizlarga to'yona bo'laqolsin», deydi uy egasi.

Darhol, bu cho'pchak-ku yo bu naqalar balki mingtadan bitta bo'lsayam, bor-da, deyishga shoshilmaylik. Mayli, bittadir, ikkitadir. Lekin buning zamirida bir sir bor. Uzoqni o'ylab qilingan ishda xosiyat bor, deydi xalqimiz.

Xosiyatli jihati, qizning o'z muammosini hal etish uchun qilgan nojo'ya ishi taqdiriga daxl qilmay qoldi. O'g'ri degan nom atrof-ga tarqalmadi. Bu bilganlar uchun katta gap. Darvoqe, shu bilan unga keladigan sovcilarning yo'li to'silmadi. Taqdiriga malomat toshi tegmadi. Tegmagani uchun u yonida yori bilan keldi.

Ilojsizlik yomon. Ayniqsa, qiz bolaning ilojisizligi oqibati uni to'g'ri yo'ldan ozdiradi. Shuning uchun

donishmand yozuvchi Sadriddin Ayniy o'qishdagi qiziga o'g'ridan ko'ra ko'proq pul bergan.

Hozirgi paytda voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha ko'ri-layotgan choralar yaxshi. Ayniqsa, bunday bolalar va yoshlar nuroniylar tomonidan otaliqqa olinib, ular tavsiasiga ko'ra jazoni o'tashdan ozod etilayotgani durust. Ammo nuroniylarning bu ishlarini, qo'li qiyshiq bolalarni to'g'ri yo'lga solish uchun ular bilan o'tkazayotgan suhbatlarini oshkor qilish yaxshi emas.

O'g'irlik, albatta, davlat yoki xususiy mulkka nisbatan sodir etiladi. Ularni kechirish esa har bir manbaning o'z ishi. Ularning ixtiyoriga bog'liq. Shunday ekan, bu noxush xabarning ko'chaga chiqmasligi, ya'ni ovoza bo'lmasligida, avvalo, jabrlanuvchining aql-idroki, fahm-farosati, odamiyligi va uzoqni ko'ra bilishi katta rol o'ynaydi.

Qaysidir yurtda, albatta, o'g'irlik uchun qo'lini kesadigan tomonlarda bo'lsa kerak, o'g'ri o'lim jazosiga

hukm qilinadi va unga so'nggi so'z beriladi. U onamning tilidan bir o'psam, deb so'raydi. Hamma hayron bo'ladi-yu, lekin oxirgi iltimos bo'lgani uchun bunga ruxsat beriladi. Shunda u «shart etib» onasining tilini uzib oladi. Hamma dong qotib qoladi.

Sud buning sababini so'raganida, avvaliga tuxum o'g'irladim, onam meni maqtadi. Tovuuq o'g'irladim, yana maqtadi. Qo'y-qo'zi-yu, qoramollar o'g'irlab keldim. Onam meni arslonim, mening boquvchim, deb ruhlantirdi. Boy-badavlat xonadonga o'g'irlikka tushganimizda uy egalari uyg'onib ketib, ularni bolalari bilan birga o'ldirishga majbur bo'ldik. Mana endi, mening o'ldirishyapti. Bunga onamning tili sababchi emasmi, debdi.

Nafs balosi oldida chumoli ham, fil ham bir xil ko'yga tushadi. Uni jilovlash oson emas. Ota-onasining aytganini qilmaydigan odamlar ko'p, deymiz. Lekin o'z nafsi uchun bolasini qing'ir ishga yo'llaydiganlar ham yo'q emas. Shuning uchun buni nafs balosi, deyishadi. Mening nafsim balodir, har baloga solodur, degan, aytilar ham bejiz paydo bo'lmagan.

Xullas, o'g'rilar osmondan tushmaydi. Oramizdan chiqadi. Gap-so'zimiz, talabimiz, e'tiborsizligimiz va tarbiyamiz ularni paydo qiladi. Shunday emasmi? Siz bunga nima deysiz?

**Shuhrat RO'ZIYEV,**  
o'z muxbirimiz.

**Oliy ezgulik  
– qalbning asl  
mohiyati. Zero, hatto  
uchiga chiqqan qaroqchi  
ham talonchilik qilmaslik  
kerakligini yaxshi anglaydi.  
U o'zini o'g'ri deb  
atashlaridan orlanadi.**

**Yan MIN,  
xitoy faylasufi.**

«Zakovat» 2-savolning javobi: «Barmiq izlari» jumlasidagi «barmiq» so'zi almashib, o'rniga quloq yozilishi kerak. Sababi, jinoyatchi nylarni quloq' orqali eshitgan va undan iz qolgan.





## ЗИЁЛИЛАР СУЛОЛАСИ

Ички ишлар органлари ходимларини чинакам ватанпарвар ва фидойи, бурчига садоқатли этиб тарбиялашда тизимда узоқ йиллар самарали фаолият юритган ва бугунги кунда кексалик гаштини сураётган фахрийларнинг босиб ўтган ҳаёт йўллари намуна қилиб кўрсатиш муҳим аҳамият касб этади. Истеъфодаги подполковник Ўткир Сатторов ана шундай касбига содиқ, ватанпарвар инсонлардан бири десак адашмаймиз. Фарғонанинг сўлим Қўқон шаҳрида туғилган бу ҳамкасбимиз нафақат касбий маҳорати билан балки, яхши тadbиркор ҳамда ҳавас қилса арзийдиган намунали оила бошлиғи сифатида ҳам ҳурмат қозонган.



Лавҳамиз қаҳрамони 1981–2005 йилларда ички ишлар органларида турли раҳбарлик лавозимларида виждонан ва сидқидилдан хизмат қилиб, бир қатор шогирдларга устозлик қилган. Ўткир ота хизмат фаолияти даврида тезкор хизматларда, шунингдек, Транспортда хавфсизликни

таъминлаш бошқармасининг Қўқон ҳамда Андижон шаҳарларида тармоқ ИИБ бошлиғи бўлиб хизмат қилган. У мазкур ҳудудлардаги темирйўллар ва уларга қарашли объектларда, аэропортларда йўловчилар, ташилайётган юклар хавфсизлигини таъминлашга бош-қош бўлган.

–1972–1974 йилларда ҳарбий хизматни ўтаб, Қўқон давлат педагогика институтига ўқишга кирдим. Бобом Юнусжон Сатторовга ҳавас қилиб шу соҳага кирганман. Қонимизда бор. У киши Қўқонда НКВДнинг бошлиғи бўлган. Кейинчалик, ИИБ Академиясини ҳам тугатдим. Би-

ринчи устозим подполковник Шпарлович Леонид Семёнович бўлади. Айнан у кишидан касб сир-асрорларини ўрганганман. Бизнинг вақтимизда Қўқон темирйўл бекатидан кунига 10–12 йўловчи поезди, қирқдан ортиқ юк ортилган эшелон ўтарди. Ҳозир гапираман десам худди эртакка ўхшайди!, — дея ўша вақтларни эслайди фахрий.

Биз ҳикоя қилаётган инсоннинг сабоғини олган ўнлаб шогирдлари транспортда хавфсизликни таъминлаш йўналишида раҳбарлик лавозимларида ишлаб, фаоллиги, натижадорлиги билан ажралиб турган. Сатторовлар оиласини ўқимишли, зиёли инсонлар оиласи дейишимизга ҳам асос бор. Ўткир ота турмуш ўртоғи Маъмура она билан биргаликда икки ўғил, бир қизни тарбиялаб вояга етказган. Катта ўғли подполковник Усмонжон Сатторов ота касбини давом эттириб, ИИБ Академиясида таҳсил олиб, ҳозирда ҳуқуқ-тартибот органларида хизматни давом эттирмоқда. Кейинги ўғли тadbиркорлик йўналишидан кетган бўлса, қизи Умида Сатторова Ўзбекистон Ҳаво йўллари авиакомпаниясида меҳнат қилмоқда. Ўн тўрт набира, бир нафар эваранинг бувижониси Маъмура ая ҳам олий маълумотли инсон.

У 1977 йили Тошкент фармацевтика институтини тугатиб, узоқ йиллар ўз соҳасида ишлаб пенсияга чиққан. Ички ишлар органларида қарийб чорак аср хизмат қилиб, 2005 йилда пенсияга чиққан Ўткир Сатторов эса 2006 йилдан «Соҳибкор-Тоғай» наслчилик-чорвачилик фермер хўжалиги раҳбари сифатида тadbиркорлик билан шуғулланиб келмоқда. Фахрийнинг Ватанимиз тинчлиги, осойишталиги йўлида қилган хизматлари бежиз кетмади. У 2021 йилда «Дўстлик» ордени билан мукофотланди.

– Истеъфода чиққач, ёшлигимдан қизиққан чорвачилик йўналишида фаолият бошлашга қарор қилдим. Меҳнат қилиб ўрганган одам барибир тинч туролмас экан. Айниқса, ҳозирги кунда муҳтарам Президентимиз томонидан яратиб берилётган имкониятларни қаранг. Тadbиркорларга имтиёзли кредитлар берилляпти, Юртбошимизнинг шахсан ўзлари бу тармоққа кучли эътибор қаратаётганлигининг ўзиёқ бизга куч-қувват беради, – дейди 70 ёшни қаршилаётган ва бугунги кундан шукроналик ҳиссини туяётган Ўткир ота.

**Аброр ПОЁНОВ,**  
ўз мухбиримиз.

### АҲОЛ ВА ЖАМИАТ

## «ҚИЗЖОНИМ, КЕКСАЙИБ ҚОЛДИК...»

### ёки ҳаёт ўзанини ўзгартирган бурч

Майор Дилбар Турғунова 1977 йил Наманган вилоятининг Чортоқ туманида туғилган. 2002–2004 йиллар Наманган вилояти ИИБ Шахсий таркиб билан ишлаш хизмати матбуот бюроси инспектори, салкам йигирма йил Учқўрғон, Тўрақўрғон, Наманган туманлари ИИБ ҲПБ вояга етмаганлар ва ёшлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикасини ташкил этиш гуруҳи инспектори, катта инспектори лавозимларида хизмат қилган. 2023 йилдан Наманган тумани ИИБ ҲПБ хотин-қизлар масалалари бўйича катта инспектор лавозимида фаолият юритиб келмоқда.

Болалигидан тиришқоқ ва интилувчан бўлган Дилбарнинг митти юрагида журналистикага ҳавас ва иштиёқ ўқувчилик пайтидан уйғонади.

Наманганлик шоир, ёзувчи ва публицист Боқимирзо Умрзоқов «Мерос» номли махсус синф ташкил этиб, унда истеъдодли ёш қаламкашларни тўплаган эди. Ижодкорга шогирд тушган Дилбарнинг қораламалари аста-секин туман газеталарида чиқа бошлади, кейинчалик республиканинг етакчи нашрларида шеърлари, кичик-кичик мақолалари чоп этилади. Мактабни тамомлаб, касб танлаш масаласи кўндаланг бўлганда ҳеч иккиланмай ҳужжатларини Тошкент давлат университетининг журналистика факультетига топширади.

Ўқишни муваффақиятли тамомлаб, илк иш фаолиятини «Халқ сўзи» газетасида бошлади. Ўз ишидан баҳра олиб ишлаб юрган кунларининг бирида

отаси кўнғироқ қилиб қолади. Бироз маҳзун оҳангда «Қизжоним, биз анча кексайиб қолдик, ёнимизда бўлсанг эди...», дейди. Дилбар ўйлаб ҳам ўтирмай, ота-онасининг бағрига қайтади ва Наманганда «Сухбатдош» газетасида фаолият юритади.

Лавҳамиз қаҳрамони ИИБ Академиясининг сиртки йўналишини ҳам тамомлаган. Устозлари кўмагига таянган Д. Турғунова 14 йил вояга етмаганлар билан ишлайди.

– Вояга етмаганлар билан ишлаш жараёнида фарзанд тарбиясида онанинг роли қанчалар муҳим эканини аёлларга тушунтиришга ҳаракат қилардим. Аёл фарзандли бўлдими, энди унинг масъулияти қанчалар ортганини, биргина она сиймосида кези келганда педагог, психолог, шифокор бўлиши лозимлигини таъкидлашдан, улар билан соатлаб суҳбатлашишдан эринмасдим. Шу маънода аёллар



билан ишлаш мен учун туб бурилиш бўлгани йўқ, ўша йўналишнинг узвий давоми сифатида қабул қилдим ва ўз тамойилларим асосида ишлаб келмоқдаман – дейди Д. Турғунова.

Лавҳамиз қаҳрамони 2 ўғил ва 1 қизнинг меҳрибон онаси.

– Фарзандларим ҳақида гап кетганда, кўпчилик уларнинг исмлари билан қизиқишади, – дейди у. – Биласизми, мутолаа менинг энг сеvimли машғулоти. Ўсмирлик пайтларимда Мирмуҳ-

синнинг «Хўжанд қалъаси», Миркарим Осимнинг «Тўмарис» ҳақидаги қиссасини ўқиб, дилимда турмушга чиқиб фарзандли бўлсам, ўғлимнинг исмини Тўмарис қўяман, деб ширин ниятлар қилгандим. Ҳозирда Ўткирбек ва Тўмарис қизим бор. Тақдиримдан миннатдорман.

**Адолат ФАЙЗИЕВА,**  
ўз мухбиримиз.

Наманган вилояти.



## SALOMATLIK SABOQLARI

## BURUN TOMCHILARI

Jazirama yozning chilla davri tugashi bilan kunduzlari issiq u darajada chekinmagan bo'lsa-da, ammo kechalari, ayniqsa, saharlari anchayin salqin havoni his etmoqdamiz. Issiq kunlardan salqin ob-havoga o'tish davrida ko'pchilikda ertalabki uyqudan uyg'ongach, tumov (burun bitishi va oqishi) holati kuzatiladi. Bunday paytda darrov burun tomchilaridan tomizib yoki maxsus spreylardan sepib, muammoni hal qilgandek bo'lamiz. Aslida burun tomchilarini qachon ishlatish kerak? Zararli oqibatlar bormi? Shu kabi savollar bilan IIV Markaziy poliklinkasi Ior-shifokori Umid Habi-bullayevga murojaat etdik.

– Tumov, ya'ni – burun bitishi va oqishining sabablari ko'p. O'RVI va boshqa infeksiyalardan tortib, mavsumiy allergiya, haroratning keskin o'zgarishigacha bo'lgan holatlar bunga sabab bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, bu muammodan xalos bo'lishning oddiy usullari bor.

● Issiq choy yoki boshqa istalgan ichimlik iching. Muhimi, u issiq bo'lsin, biroq quydiradigan darajada emas. Issiqlik va bug' burun va halqumda qon aylanishini kuchaytiradi. Natijada nafas olish yengillashadi. Agar organizmga suv yetishmasa, burun ham sog'lom holatda bo'lmaydi.

● Burun uchun issiq kompress qiling. Issiq, biroq quydirmaydigan haroratdagi suvda bo'ktirilgan salftetkani burunga 2–3 daqiqaga kuniga 3–4 marta qo'ying.

● Burunni tuzli eritma bilan chaying. Tayyor tuzli aerezolni dorixonadan sotib olish yoki mustaqil ravishda tayyorlash mumkin. Buning uchun yarim choyqoshiq tuz va bir chimdim sodani bir stakan (240 ml) iliq suvga soling. Yoqimsiz belgilar butunlay yo'qolguniga qadar kuniga 3–4 marta ushbu eritma bilan burunni chaying.

● Tomirni toraytiruvchi spreylar va burun tomchilaridan foydalaning. Tom-



chilar tezroq ta'sir qilishi uchun foydalanish vaqtida boshingizni orqaga egib, biroz yon tomonga buring. Burun yo'llarini yuvayotganda, doritomizgichdan foydalaning, eritmani burun bilan tortmang. Natijani darhol his etasiz: nafas olishingiz erkinlashadi. Biroq bu bir necha soat davom etadi, xolos.

Shuni yodda tutingki, bunday vositalardan 7 kundan ortiq foydalanish mumkin emas. Birinchidan, ko'nikishga sabab bo'ladi, ikkinchidan, burun shilliq qavatida kasallik jarayonlarining kuchayishiga, rinit va burun poliplarining rivojlanishiga, shuningdek, qon bosimining oshishiga

olib kelishi mumkin. Bunday hollarda asosi yog' bo'lgan tomchilarni qo'llash samaraliroq. Ularning ta'siri uzoq davom etadi va qaramlikka olib kelmaydi.

Muolajalarga qaramay, tumov sizni tark etmasa, albatta, shifokor bilan maslahatlashing. Burun bitishi va oqishining tez-tez takrorlanishi, nafas olishning qiyinlashuvi burun suyagining egriligi, og'ir shikastlanish oqibati, rivojlanishdagi tug'ma anomaliyalar va boshqa muammolar tufayli yuzaga kelgan bo'lishi ham mumkin.

**Tavsiyalarga amal qilishdan oldin shifokor bilan maslahatlashing.**

OFTOBDA QOLGAN  
SUVNI ICHMANG!

Bozorlarda, do'konlarda quyosh tushib turadigan joylarga plastik idishlardagi suvlarni ko'rgan bo'lishingiz kerak. Ayniqsa, yozda «optom»chilarda bloklab suvidishlar tashqarida oftobda turadi. Shunchaki ustini yopib qo'ysa ham bo'ladi, lekin shu ham qilinmaydi...

Oftobda qolgan suv mavjud kasalligingizning rivojlanish xavfini oshiradi. Suv haroratining ko'tarilishi undagi ichak tayoqchalarining ko'payishiga, bu esa ichak infeksiyalari rivojlanishiga olib keladi.

Avvallari bu suvni «oftoba suv» deyishgan va terida turli kasalliklarni keltirib chiqarishini bilganlar hattoki yuvinish uchun ishlatishmagan.



## ЗДОРОВЫЙ ДЕНЬ ЗДОРОВОГО ЧЕЛОВЕКА

В организме все процессы идут по часам, и чтобы их правильно завести, нужно вечером вовремя лечь спать. Поздний отход ко сну ломает всю цепочку и постепенно ведет к ухудшению общего самочувствия. Вы когда-нибудь задумывались, почему организм посылает нам те или иные импульсы? Почему ночью нам хочется спать? Почему, когда мы нервничаем, мы много едим, тем самым аккумулируя тепло и энергию?

Оказывается, за все эти послы отвечают гормоны, и у них есть свой режим работы.

Утром у людей начинает вырабатываться серотонин, или «гормон счастья». Его время определяется в промежутке с 4.00 до 6.00 часов утра.

После 6.00 часов поднимается уровень кортизола – гормона бодрствования. Он готовит наш организм к активным действиям.

**12 правил**

**КОНТРОЛИРУЙТЕ СВОЕ АРТЕРИАЛЬНОЕ ДАВЛЕНИЕ!**  
Артериальное давление не должно быть выше 140/90 мм. рт. ст.

**КОНТРОЛИРУЙТЕ УРОВЕНЬ САХАРА В КРОВИ!**  
Максимально допустимый уровень сахара натощак – 6,1 ммоль/л.

**РЕГУЛЯРНО ПРОВЕРЯЙТЕ УРОВЕНЬ ХОЛЕСТЕРИНА В КРОВИ!**  
Максимально допустимый уровень холестерина – 5,0 ммоль/л.

**УКРЕПЛЯЙТЕ ИММУНИТЕТ!**

**БОЛЬШЕ ДВИГАЙТЕСЬ!**  
Физическая активность в среднем должна составлять не менее 30 минут в день.

**БУДЬТЕ АКТИВНЫ!**

**НЕ ЗЛУПОТРЕБЛЯЙТЕ АЛКОГОЛЕМ!**

**НЕ КУРИТЕ!**

**НЕ ПЕРЕЕДАЙТЕ!**  
Употребляйте в пищу не менее 500 граммов овощей и фруктов в день.

**СЛЕДИТЕ ЗА СВОИМ ВЕСОМ!**

**ОГРАНИЧЬТЕ ПОТРЕБЛЕНИЕ СОЛИ!**  
Суточная норма соли не должна превышать 5 грамм.

**ЧАЩЕ УЛЫБАЙТЕСЬ!**

**активного долголетия**

А если в это время еще выпить стакан воды, то живительная влага вымоет из нашего организма все гормоны стресса.

В 7.00 утра прекращается выработка мелатонина, и продолжение сна становится бесполезным.

Ближе к 8.00 повышается тестостерон. Это время прекрасно подойдет для занятий спортом (зарядка, гимнастика, легкая пробежка).

В период с 10.00 до 14.00 вырабатываются нейрого르몬ы. Это самое удачное время для умственной деятельности.

Во временной период с 14.00 и до 16.00 на смену приходит гормон роста, поэтому в это время очень хочется спать. И если у вас имеется такая возможность, то обязательно поспите всего минут 20, а затем немного разомнитесь. Это придаст новых сил.

После 17.00 часов снижается уровень кортизола. В это время лучше не принимать никаких серьезных решений и не заниматься спортом.

Мелатонин начинает свою производительность в 21.00. В это время начинает снижаться температура тела, тем самым увеличивая продолжительность молодости. В это время организм готовится ко сну.

В 22.00 начинают вырабатываться эндорфины. В это время особенно важно лечь спать. Так как именно в период с 22.00 до 4.00 происходит полная «перезагрузка» организма и ценность сна наиболее максимальна.

В 2.00 часа ночи просыпается гормон роста. Именно в этот период дети особенно активно растут, а у взрослых крепнет мускулатура и обновляется кожа.

Поэтому, если вдруг вы почувствовали, что в течение дня ваше самочувствие ухудшилось и не соответствует «режиму гормонов», то следует обратиться к врачу-эндокринологу. Он назначит полное обследование и поможет устранить проблему.





ХОРЕЗМСКАЯ ОБЛАСТЬ

# ФЕСТИВАЛЬ «КОВУН САЙЛИ» В ХИВЕ

Во исполнение постановления Президента страны от 26 апреля 2023 года «О дополнительных мерах по ускоренному развитию туристского потенциала республики, а также дальнейшему увеличению числа местных и иностранных туристов» проводится ряд мероприятий. Одним из них стал фестиваль дыни «Ковун сайли», организованный на территории объекта исторического наследия «Ичан калъа» города Хивы.



В нем участвовали жители Хорезмской области, местные и иностранные туристы, представители дипломатического корпуса зарубежных стран, аккредитованные в Узбекистане. Были сооружены павильоны областей, городов и районов республики, на которых демонстрировались уникальные бахчевые, выращенные в регионах страны. Известные сорта дыни привлекали не только вкусовыми качествами, но и внешним видом, формой и цветом. Выставки, выступления фольклорных коллективов, продолжавшиеся три дня, придали фестивалю неповторимый колорит.

– Фестиваль призван показать потенциал Хорезмской области в направлении агротуризма, рассказать о традициях и опыте бахчеводов края, популяризировать древние сорта арбузов и дынь, представить богатую витаминами садоводческую продукцию, – говорит участник фестиваля дехканин Шокир Султонов. – Ассортимент действительно широк. Это такие сорта местных дынь, как «Гурвак», «Киличбой бешак», «Кари киз», «Туя ковун», «Туёна», «Ола замча», «Хоразм ок новвоти», «Кук гулоби», «Бурикалла» и десятки других. Организованы выставки меда, фруктов и ово-

щей, бахчевых, кондитерских изделий, рыбной и животноводческой продукции.

В рамках фестиваля показаны концертные номера, состоялись выставки произведений живописи, изделий ремесленников, театрализованные выступления. Порадовали искусством мастера-кукольники. Привлекли внимание гостей показ национальной одежды и демонстрация блюд хорезмской кухни. Звучали образцы устного народного творчества.

Победителям и призерам фестиваля вручены ценные подарки.

– Общественную безопасность и правопорядок во время фестиваля обеспечивали сотрудники подразделений внутренних дел, по чрезвычайным ситуациям и Национальной гвардии, – говорит подполковник Матёкуб Мадаминов. – По периметру площади, где прошли мероприятия, установили 30 камер видеонаблюдения.

Словом, фестиваль «Ковун сайли» прошел успешно и вызвал живой интерес у участников и гостей незабываемого мероприятия.

**Худойберган ЖАББОРОВ,**  
соб. корр.

*Хорезмская область.*



## MUNAJJIMLAR BASHORATI

(26-avgustdan 1-sentabrgacha)



**Qo'y.** Ushbu hafta davomida vakolatingizga kirmagan masalalarda tashabbus ko'rsatishdan voz keching. Bu tavsiya ham ish faoliyati, ham shaxsiy hayotga tegishli. Imkon qadar bir muddat tashqi kuzatuvchiga aylaning. Hozircha oilaviy muammolar yechimini yanada qulay paytga qoldirgan ma'qul.



**Buzoq.** Ayni onda va shu yerda yashashga harakat qiling. Ushbu hafta uchun hech narsa rejalashtirmang, chunki rejalar sizga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra tez-tez o'zgarib turishi mumkin. Dushanba va seshanba kunlari hushyor bo'ling. Negaki bu vaqtda kasbiy sohangizga oid qiyinchiliklar yuzaga kelishi va pul yo'qotishlar kuzatilishi mumkin.



**Egizaklar.** Agar o'tgan haftada oxiriga yetmay qolgan ishlar bo'lsa, darhol ularni hal eting. Bu davrda qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlarga putur yetishi mumkin. Iloji boricha nizoli holatlardan yiroq turing. Atrofdagilarga yaxshi kayfiyat ulashing, boshiga tashvish tushganlarni qo'llab-quvvatlang. Oila a'zolaringiz va yaqinlaringizga e'tiborli bo'lishni unutmang.



**Qisqichbaqa.** Bu hafta barcha reja va istaklaringiz dastlabki urinishdanoq amalga oshadi. Ushbu imkoniyatdan oqilona foydalanishga harakat qiling. O'z xohish-istaklaringizni me'yorlang, atrofdagilarning manfaati va qiziqishini ham inobatga oling. Shuningdek, bu davrda moliyaviy masalalarda tejamkor bo'lib, kutilmagan xaridlardan o'zingizni tiyishga harakat qiling.



**Arslon.** Siz uchun ushbu haftaning asosiy va muhim voqealari ish joyingizda sodir bo'ladi. Birinchi galda, yumushlarning eng ustuvoriga qo'l urib, belgilangan vazifalarni hafta oxirigacha bajarib tugating. Dam olish kunlari barcha tashvishlarni unutib, miriqib dam olishga harakat qiling.



**Parizod.** Bu hafta siz uchun juda samarali va omadli keladi. Oilaviy yumushlarda ko'p narsaga ulgura olmasangiz ham, ish joyingizda barcha vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirasiz. Moliyaviy masalalarda ham qiyinchilikka duch kelmaysiz. Dam olish kunlari tabiat qo'ynida hordiq chiqaring, bu qalbingizga xotirjamlik va huzur baxsh etadi.



**Tarozi.** Bu davrda kuch-shijoatga to'lib, ko'pgina rejalarini ro'yobga chiqarish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Shu kunlarda amalga oshirilgan tavakkalchilik ko'pincha omad keltiradi. Faqat shoshmashosharlikka yo'l qo'ymang va ushbu ijobiy holatingizdan aniq maqsadlarda foydalanishga harakat qiling.



**Chayon.** Yangi ish boshlash niyatida bo'lsangiz, yaqinlaringiz bu borada sizni qo'llab-quvvatlashi va yordam qo'lini cho'zishini unutmang. Yumushlarning bir qismini ularning yelkasiga ortishdan xijolat bo'lmang. Sizga bu hozir juda zarur. Asosiysi, ko'zlangan maqsadga erishish uchun yanada faol harakat qiling.



**O'qotar.** Bu hafta jismoniy faollikni kamaytirish, ruhiy bezovtalikni keltirib chiqaradigan va osoyishtalikka xalaqit qiladigan hamma narsadan uzoqlashish tavsiya etiladi. Odatiy turmush tarzidagi eng kichik burilishlar va o'zgarishlar ham sizning kayfiyatingizga salbiy ta'sir ko'rsatadi.



**Tog' echkisi.** Kelayotgan hafta mablag' jamg'arish uchun yaxshi davr, sarf-xarajatlarni hozircha qisman kamaytirib turgan ma'qul. Haftaning ikkinchi yarmida uchrashuv va suhbatlar vaqtini bemalol belgilashingiz mumkin. Ular hayotingizda o'zgarishlar yuz berishini va'da qilmoqda.



**Qovg'a.** Bu hafta imkon qadar katta ish rejalarini tuzmang. Yaqinlar va do'stlar bilan munosabatda tushunmovchiliklar yuzaga kelsa, ular bilan ziddiyatga bormang va orada xavfsiz masofani saqlang. Yaxshisi bu paytda o'zingizga, jismoniy va ruhiy salomatligingizga e'tiborli bo'lganingiz ma'qul.



**Baliq.** Bu davrda yaqin kishingizdan kutilmagan sovg'a yoki xushxabar olasiz. Bundan tashqari, tashabbuskorlik va ishdagi faollik ortidan barcha moliyaviy masalalarni omadli hal qilishingiz mumkin. Siz uchun seshanba eng samarali kun bo'lib, foydali va istiqbolli ishlarga qo'l urasiz.



# YANGI O'ZBEKISTON INSHOOTLARI



Inson qadri ulug', uning manfaatlari ustuvor. Yangi O'zbekistonda keng tatbiq etilayotgan ushbu tamoyil yurtimizning barcha go'shalarini ko'rkam manzillarga aylantirish, aholining turmush madaniyatini yuksaltirishda omil bo'layotir. Jumladan, Jizzax viloyatida sanoat quvatlarining soni yildan-yilga ortmoqda. Xuddi shunday, milliy qadriyatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor bilan yondashilyapti.



## «ZAKOVAT» SAVOLLARI

«Kalmar o'yini» serialida bir politsiyachi yigit jinoyatchilar (ya'ni o'yin tashkilotchilari) orasiga kirib oladi. Tashkiliy guruh a'zolari uchun mo'ljallangan yotoqxonada yotar ekan, qo'shni xonalardan biridagi odamning yo'talgan payti «undan» foydalanishi e'tiborini tortadi va bu detal yana bir jinoyatni ochish uchun yordam beradi.

**Diqqat savol: qo'shni xonadagi jinoyatchi yo'talgan holatda nimadan foydalangan?**

Londonda g'ayrioddiy bir jinoyatchi paydo bo'ladi. U faqat uylarni sinchkovlik bilan eshitadi, uy egalari ovoz chiqmagan taqdirda uyga kirib qimmatbaho buyumlar hamda moddiy boyliklarni o'marib ketadi. Qo'lga tushgach esa politsiyachilar u o'margan barcha uylarni aniqlashadi. Bunga eshiklardagi jinoyatchidan qolgan barmoq izlari yordam beradi. **Jumboqdagi almashtirilgan bir dona so'zni toping.**

*Ushbu savollarning javobini gazeta sahifalaridan topasiz.*

**MUASSIS:**  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik  
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV  
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV  
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

Sarvar SOBIROV  
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV  
Ilhom JUMANOV  
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV  
Ikrom HASANOV

**TELEFONLAR:**

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: [www.postda.uz](http://www.postda.uz)

E-mail: [info@postda.uz](mailto:info@postda.uz)

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami  
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi  
Iqtisodiyot va moliya  
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v  
470010860262877031101179001  
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-  
yozma va suratlar egasiga  
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosil-  
ganda manba ko'rsatilishi shart.  
Gazeta tahririyat kompyuter  
markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Korxonalar manzili: 100206  
Yunusobod tumani,  
Yangishahar ko'chasi 1<sup>A</sup>-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi  
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda  
0120-raqam bilan ro'yxatga  
olingan.

Buyurtma №2828.

Bosilish – ofset usulida.  
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma  
taboq. 45298 nusxada chop etildi.

**Obuna raqamlari:**

Yakka tartibda – 180.  
Tashkilotlar uchun – 366.  
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.  
Bosishga topshirildi – 21.00.  
Sotuvda kelishilgan narxda.

**MANZILIMIZ:**

100070, Toshkent shahri,  
Shota Rustaveli 1-berk  
ko'chasi 9-uy.

